


XORAZM MA'RIFIATI



Ma'naviy - ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, ommabop nashr

Gazeta 2010-yil iyul oyidan chiqa boshlagan. 2023-yil 28-aprel, 7-8 (273-274) ISSN-2181-4813

KONSTITUTSIYAGA E'TIBOR - MA'NAVIYATGA E'TIBOR

Konstitutsiya o'zida insonning xalqaro umume'tirof etilgan asosiy huquq va majburiyatlarini jamlagan oliy yuridik maqomga ega hujjatdir. Jamiyatga dahldor har bir insonning ko'nglida, ertangi kunga umid bilan boqishining o'zida, olayotgan nafasiyu, to'kin-sochin hayotida Konstitutsiyaning o'zni naqadar muhimligini sezishimiz mumkin. Hozirgi globalashuv jarayonida tashqi olamda ro'y berayotgan o'zgarishlar va turli holatlar bosh qomusimizni yanada mustahkam hamda mukammal holatga keltirishimizni talab qilmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz "Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizning mazmuni, vatandoshlarimizning ong ta'fakkuri, dunyoqarashi tubdan

o'zgarimoqda. Yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro millati, tili va dinidan qat'i nazar, jamiyatimizning teng huquqli taqdirining chinakam egasi, mamlakatimizdagi barcha o'zgarish va yangilanishlarga o'zini nafaqat dahldor, balki bu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi, erkin va bunyodkor inson sifatida his etmoqda" deya ta'kidlagani bejiz emas.

Biz ma'naviyat xodimlari "Konstitutsiyaga e'tibor, ma'naviyatga e'tibor" deb bema'lol ayta olamiz. O'z kelajagiga befarq bo'lmagan vatanparvar xalqimiz yaqinlashib kelayotgan referendumda faol ishtirok etishiga ishonamiz.

M.ABDULLAYEV,
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining Xonqa tumani bo'linmasi bosh mutaxassisi.

O'QUVCHI O'QITUVCHI HAQIDA YUTUQLARIM ZAMINI UNDA USTOZIM MEHNATLARI MUJASSAM

Men bilim dargohimizning 7-"B" sinf o'quvchisiman. Dars mashg'ulotlaridan keyin maktabda tashkil etilgan "Yosh kimyogarlar" to'garigiga qatnashaman. Kimyo fani 7-sinfidan o'qilib boshlashiga qaramay men bu fanga juda qiziqaman. Bunga sabab ustozim Nilufar Matyoqubovanning shu fanga qiziqitirib dars o'tishidir. O'qituvchimiz har bir darsni yangi pedtexnologiyalardan foydalanib mavzuni hayotga bog'lagan holda tushuntirishga harakat qiladi.

Ustozimiz past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni iqtidorli o'g'il-qizlarga biriktirib, o'quvchilar o'rtasida ham "Ustoz-shogird" an'anasini yo'lga qo'yan. Bu bizlarga juda yoqadi. Men bu yil Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiadada qatnashib, shahar bosqichida uchinchi o'rinni oldim va uning viloyat turida muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Kelasi yil olimpiadaning viloyat bosqichida faxrli o'rinni egallashga hozirdan harakat qilmoqdaman.

Mashhura RO'ZMETOVA,
Xiva shahridagi 14-umumta'lim maktabining "Yosh kimyogarlar" to'garagi qatnashchisi.

BUGUN: XONQA TUMANIDAGI 35-UMUMTA'LIM MAKTABIDA

ZAMON BILAN HAM NAFAS



Muqaddas Rahmonova o'ta bolajonligi, mehribonligi, jamoada o'zini tutishi bilan ajralib turadi. U 1994-yildan buyon maktabimizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars beradi. Jamiyatimizga ko'plab shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgan. Ular bugun yurt ravnaqiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

-Bolaga bilimni faqat yaxshi gap va mehribonlik bilan o'rgatish kerak, deya o'z tajribasi bilan o'rtoqlashadi

muallima - Unga qattiq gapirib, tanbeh berib yoki qo'rqitib ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Ustoz birinchi navbatda sinf xonasiga kirib kelgan o'quvchining yuz-ko'ziga, kayfiyatiga qarashni, chehrasi ochiqmi, biror nimadan norozi emasmi, kiyimlari tozami - barcha detallargacha razm solishni shogirdlariga uqtirib keladilar. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda bolani rag'batlantirish juda muhimligini inobatga olib ertak qahramonlari, gullar, yumshoq o'yinchoqlar tilida ularni a'lo o'qishga, uy vazifalarini to'liq bajarishga, chiroyli yozishga undab turish kerakligini doimo eslatib turadilar.

Bunday ustozlar tajribasi biz uchun maktab.

Farog'at HASANOVA,
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

TA'LIM-TARBIYA UYG'UNLIGI

"Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo, ta'lim - tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki, bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot-o'qituvchi va murabbiylarning oliyanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi ta'fakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalarga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz". Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobidagi ziyolilarga bo'lgan katta hurmat va ishonch ta'lim tizimida ish olib borayotgan har bir rahbar va pedagogning hayoti hamda faoliyatidagi asosiy mezonga aylanib ulgurdi.

Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamarida nafaqat bilimni avlodni shakllantirish, shu bilan birga, yuksak ma'naviyatli o'g'il-qizlarni tarbiyalash vazifasi ham yotibdi. Shu ma'noda mazkur tizimda ro'y berayotgan bugungi o'zgarishlar butun jahon jamoatchiligi e'tibori va e'tirofiga tushganligi ham bejiz emas. Bu esa yosh avlodga zamonaviy bilim berish, kasb-hunar o'rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatni o'stirish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ayni paytda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash davlatning doimiy e'tiboriga olinganligining natijasidir. Aynan shuning uchun ham ta'lim maskanlaridagi pedagogik jarayonlarda mohiyatan ta'lim va tarbiya birini ikkinchisidan ajratmagan holda, barobar olib boriladi.

Zubayda BOLTAYEVA,
birinchi toifali texnologiya fani o'qituvchisi.

ELARDOG'IDAGI MUALLIMA

qilishadi. Ular o'zlarining kamtarliklari, fidoyiliklari, barchaga mehribonliklari bilan jamoamizda munosib o'rinda ega ustozdirlar.

Ta'lim-tarbiya bergan shogirdlari hozirda jamiyatda o'z o'rinlarini topib, yurtimiz taraqqiyotiga barakali ulush qo'shmoqdalar. 2022-yilda 4-sinf bitkazuvchi o'quvchisi Zarina Xolnazarova Prezident ta'lim muassasalariga agentligiga qarashli ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchisi bo'ldi.

S.Setimova ta'lim-tarbiya berish bilan cheklanib qolmasdan mana, bir necha yillardan

beri maktabimiz boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti rahbari bo'lib kelayaptilar. Ushbu faoliyatlarida tinib-tinchimay, xodimlardan imkon boricha o'z yordamlarini ayamaydilar. Ushbu xizmatlari munosib taqdirlanib, 2020-yil 8-Mart, Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar. Shuningdek, 2022-yil 11-noyabr kuni O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi-ni Faxriy yorlig'i bilan mukofotlandilar.

Saida ustoz o'quvchilarga namunali ta'lim-tarbiya berishdan aslo charchamasinlar.

Mashhura MATMURATOVA,
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

S E M I N A R

DAVR QAHRAMONI

BILAN UCHRASHUV XOTIN-QIZLARGA MOTIVATSIYA BERDI

gan san'atkorlarimizni, har sohada sezilarli yutuqlarga erishib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlariga aylanayotgan qizlarimizni ko'rsatishimiz mumkin.

Shunday yoshlarimizdan biri Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, jurnalist, 30 ga yaqin davlatlarning O'zbekistondagi yosh elchisi, 20 ga yaqin Xalqaro tashkilotlar a'zosi, o'nlab kitoblar muallifi va tarjimoni Shohida Yusupova tub ma'noda Xorazm faxri. U O'zbekistonda ilk bor "Shine" qizlar akademiyasini ochishga muvaffaq bo'lgan. Bugungi kunda ushbu akademiyada yurtimizning 5 mingdan ziyod xotin-qizlari hayotida tub o'zgarishlar yasashga ulgurishdi. Jumladan, akademiya bitiruvchilari

Xalqaro maydonga chiqishdi, shaxsiy kitoblarini chet davlatlarda nashrdan chiqarishdi, bir qator nomdor stipendiyalar sohiblariga aylanishdi, ko'plab tanlovlarda g'olib bo'lishdi, qanchadan-qancha qizlarimiz til o'rganishdi, shaxsiy biznesini boshlashdi. Va bularning barchasiga Shohida va uning akademiyasi sabab bo'ldi.

Kuni kecha Urganch shahridagi Yoshlar markazida Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan xotin-qizlar uchun "Muvaffaqiyat sari 0 dan" deb nomlangan bir kunlik seminar tashkilotirildi. Ushbu seminar Shohida Yusupova spikerlik qildi va 500 dan ortiq xotin-qizlar ishtirok etishdi. Seminarda asosan "Shine" qizlar akade-miyasi

kurslari, turk tili, moliyaviy mustaqillikka erishish, shaxsiy rivojlanish, maqsadlar strategiyasi, Xalqaro maydonga chiqish, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, xorijiy tillarni o'rganish, still, moda, makiaj va qizlarimiz uchun eng kerakli mavzularda suhbatlashildi. Ishtirokchilarga gavjum zalda haqiqiy liderlik, haqiqiy motivatsiya, energiya yaqqol ko'rinib turdi. Shunday shukuhli kunlarda ushbu seminar xotin-qizlar uchun manfaatli bo'ldi deyolaman. Tadbirda biz ham bilim-tajribalarimizni boshqalar bilan o'rtoqlashdik. Fikr almashdik.

Gulchehra QODIROVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo'lim IV bosqich talabasi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan har sohada yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar soni mingta. Kompyuter savodxonlik deymizmi, kitobxonlikmi, san'at, sport, ijodkorlik deymizmi barcha qiziqishlarimizni rivojlantirishga, yuksalishga, amaliyotga tatbiq etishga bugun shart-sharoitlarimiz cheksiz. Albatta, bu imkoniyatlardan biz yoshlar unumli foydalanmoq'imiz dardkor. Shunday shart-sharoitlardan maqsadli foydalanib, jamiyatimizda o'z o'rnini topgan, bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan, har tomonlama lider yoshlar viloyatimizda ham talaygina. Bunga misol qilib jahon miqyosida yetakchi o'rinlarni egallab, yurtimiz bayrog'ini boshqa davlatlarda hilpiratib kelayotgan sportchi yoshlarimizni, yosh bo'lishiga qaramasdan san'at sohasida o'z o'rniga ega bo'lib, "Nihol" mukofoti sovrindori bo'layot-

30 APRIL — ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ РЕФЕРЕНДУМИ КУНИ ЧИНАКАМ ХАЛҚ КОНСТИТУЦИЯСИ

Xalqimiz konstitutsiyaning islohotlardan katta ʻzgarishlar kutmoqda. Loyiha bʻyicha ʻtkazilgan umumxalq muhokamasi jaraʼnida aʼholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushganligi ham fuqarolarimiz ʻshbu masalaga katta qiziqish va ʻyʻtibor bilan ʻndashganligidan dalolat beradi. Loyihada mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiʻyat strategiyalari, yurtimiz va xalqimizning ʻzrtangi farovon ʻaʻti uchun mustahkam huqukiy asos hamda ishonchli kafolatlar ʻz ifodasini topmoqda. ʻzbekiston "huqukiy davlat" degan konstitutsiyaning tamoyil muhran-mokda. Bu barchani qonun oldida tengligini va qonundan hech kim ustun emasligini taʻminlash, sudlar tomonidan adolatli qarorlar qabul qilish, umuman olganda, davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam poidavor bʻladi.

Yangi taʼxiridagi Konstitutsiyaning ilgari amal qilib kelgan "davlat - jamiyat - inson" tamoyilini "inson - jamiyat - davlat" deb ʻzgartirish, yaʻni eng avvalo, inson manfaatini har narsadan ustun qʻyishni maqsad qilgan. Xususan, unda inson huquq va ʻzkinliklarini taʻminlash - davlatning oliy majburiyati etib belgilanmoqda va shu munosabat bilan inson huquqlari kafolatlari jiddiy ravishda kuchaytirilmoqda.

Loyihaga asosan inson shaxni va кадр-киммати dahlisizdir, hech narsa ularni kamситиш uchun asos bʻlishi mumkin emas. Insonning huquq va ʻzkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Inson va davlat organlari ʻrtasidagi ʻzaqa kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huqukiy taʻsir choralari maqsadga ʻriyish uchun ʻetarli va mutanosib bʻlishi kerakligi belgilanmoqda. Bu normalar huqukiy qʻllash faoliyatida inson manfaatlari ustivor bʻlishini amalda taʻminlashga xizmat qiladi. Shuningdek, har bir inson ʻz shaxsini ʻzkin kamol topirish huquqiga ʻzligi, qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga uning roziligrisiz ʻyulatilishi, ʻzbekiston fuqarosi mamlakatdan tashqariga chiqarib ʻyborilishi ʻki bosqa davlatga berilishi mumkin emasligi belgilanmoqda.

Jinoyat prosesida inson huquqlari kafolati eng ilgʻor xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirilmoqda. Xususan, shaxs sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ("Xab-eas korpus" instituti) hamda shaxsni ushlab turish choʻgida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda koʻdalari") belgilanmoqda. Ushbu huqukiy kafolatlar inson huquqlari muhofazasini kuchaytirish sohasidagi ishlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi hamda ularni davlat organlarining suistemyoliklaridan ishonchli himoya qiladi, shaxsiy ʻzkinlik dahlisizligini va insonlarni noqonuniy hibsga olishga ʻyul kuyimaslikni kafolatlaydi. Mazkur Konstitutsiya haqiqatdan ham xalq Konstitutsiyasi bʻlaypti. Unda aʼholining barcha katlamlari, shu jumladan aʻllar, nuro-niylar, bolalar, ʻshlar, nogironligi bʻlgan, ijtimoiy himoaga muhtoj shaxslar, xorijdagi vatandoshlarimiz, hattoqi mahkumlar - barча-барчасининг huquq va manfaatlari hisobga olinmoqda.

Eng muhimi, ushbu barча масалалар референдумга, yaʻni xalqimiz muho-kamasiga, hukmiga chiqarilmoqda. Tariximizda ilk marotaba Konstitutsiyaning qabul qilinishi bevosita xalqimizning xohish-irodasiga bogʻliq bʻladi. Xalq ovoz berganidan keyin qʻshimcha hujjatlar qabul qilinishi shart emas, Parlamentda muho-kadadan ʻtiishi va Prezident tomonidan imzolash zarurati ham ʻyʻk.

Yangi taʼxiridagi Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilinib, tʻgirdan-tʻgiri amalga kiritiladigan birinchi hujjat bʻladi. Buning eng ahamiyatli tomoni, barchani ovoz bir hil maqomga va kunga ʻga ekanligida. Yaʻni ʻshu qarining tanlovi va fikri ahamiyatli hamda xal qiluvchi bʻladi.

Ж. ЖУМАНИЕЗОВ,
jinoyat ishleri bʻyicha Jangirak tumani sudi raisi.

YANGI MEHNAT KODEKSI O'RGANILDI

So'nggi yillarda mehnat bozoridagi vaziyat ham o'zgardi, qabul qilingan sohaga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida ko'pgina yangi institutlar, yangi mexanizmlarning amaliyotga kiritilganligi kodeksni yangi tahrirda qabul qilish zaruratini tug'dirdi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, hukumatiy tomonidan tegishli vazirlik va tashkilotlar ishtirokida "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash haqida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mehnat kodeksi loyihasini ishlab chiqish chog'ida 10 dan ortiq xalqaro tashkilot, jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining qator konvensiyalari, 60 dan ziyod davlat tajribasi o'rganildi. Kodeks loyihasi Qonunchilik palatasida bir yil davomida juda chuqur tahlil etilib, maromiga yetkazildi.

Mamlakatimizda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining mazmun-mohiyatini fuqarolarga yetkazish maqsadida turli xil targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirilmog'da. Jumladan, shu yil 26-aprel kuni viloyat adliya boshqarmasida "O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligini takomillashtirish bosqichlari va xalqaro tajribalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Unda Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Belorusiya davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, viloyat Prezident xalq qabulxonasi, Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universiteti va barcha yuridik texnikumlar online va offline tarzida ishtirok etdilar.

Mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi bugungi kunda rivojlangan davlatlarning mehnat qonunchiligidagi dolzarb masalalarni huquqiy jihatdan o'rganish, O'zbekistonning mehnat qonunchiligi sohasida xalqaro hamkorlik hamda mehnat qonunchiligi faoliyatidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan muhokama etishdan iborat. Konferensiya ishtirokchilari yangi mehnat kodeksini qabul qilishning zaruri ahamiyati, mehnat qonunchiligini takomillashtirishda xalqaro tajribalar, mehnat qonunchiligi bilan bog'liq ma'muriy va jinoyi javobgarlik masalasi hamda yangi mehnat kodeksining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berishdi.

R.IBRAGIMOV,
viloyat adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi.
A.NURJANOVA,
viloyat yuridik texnikumi yetakchi mutaxassisi.

ABITURIYENTLARNING MAKTABDAGI BAHOLARI

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIGA KIRISHDA HISOBGA OLINADI

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrda 696-son qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari baholarining o'rtacha ko'rsatkichini hisoblash va uni oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imtihonlarida inobatga olish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan maktab bitiruvchilarining shahodat-nomasidagi 11 yillik ta'limning so'nggi 6 yillik baholari oliy ta'lim muassasalariga kirishdagi ballga qo'shiladi.

Baholar elektron platformalar orqali hisoblanadi va Davlat test markazining "ABITUR" dasturiga yuboriladi. Baholarning o'rtacha ko'rsatkichi 6-11-sinfidagi yoki 6-9-sinfar va 1-2-bosqichlardagi yillik baholarning umumiy yig'indisini o'qitilgan fanlarga bo'lish orqali chiqariladi. Maksimal ball 100 foiz deb olinadi va ballar baho tizimiga quyidagicha o'tkaziladi:

- 86-100 % uchun - 5 baho;
- 71-85 % uchun - 4 baho;
- 56-70 % uchun - 3 baho;
- 56 % gacha - 2 baho.

R.IBRAGIMOV,
viloyat adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR PSIXOLOGIYASI

Bolalarning kichik maktab yoshidagi davri 7 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich sinflarda o'qishi yillariga to'g'ri keladi. Bog'cha yoshidagi bolalik davri tugaydi. Maktabga kelish oldidan bola o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab davrida qo'yiladigan turli tuman talablarni bajarishga psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Bolaning qobiliyati rasm chizish mashg'ulotlarida yoki plastilindan narsa yasash ishlari va eng oddiy ko'rish-yasash mashg'ulotlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bola o'z diqqatini boshqarishda, mustaqil tashkil qilishda birmuncha tajriba hosil qilgan bo'ladi. 7 yosh bolaning so'z xonasi ham yetarli darajada boy va mavhum tushunchalar miqdori ancha yuksak bo'ladi. Bola eshitganlarini yetarli darajada keng tushunadi. Mutaxassislarining tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, yaxshi tashkil qilingan ta'lim 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantiradi. Ular sodda mashqlar va masalalarni tuza oladigan hamda yecha oladigan bo'ladi. Ularda burch hissi va javobgarlik hissi endigina namoyon bo'la boshlaydi.

Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Psixolog L.S.Slavina-niing ko'rsatishicha, boshlang'ich sinfda bilish faolligi yetarli darajada bo'lmagan

bolalar uchrashi mumkin. Bunday bolalar intiluvchanlik jihatidan normal rivojlangan bo'ladi. Bu rivojlanish ularning o'yin va amaliy faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Faol fikrlash ular uchun xarakterlidir. Bunday o'quvchilarga o'qituvchi alohida diqqat bilan qarashi kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgan. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish va hisoblash malakasini egallashlari, ancha katta hajmda bilimni o'rnatishlari kerak. Ikkinchidan, bolaning bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi va rivojlanadi. Uchinchidan, bilim jarayonlarining taraqqiyoti, aqliy rivojlanish yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlari va faoliyatida tafakkur taraqqiy etishini xarakterlab beramiz.

Idrok. Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi, sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida benigianlik bilan farq qiladi.

Diqqat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy xususiyatlari ixtiyoriy zaifligidir. Kichik maktab yoshida diqqatni iroda kuchi

Ma'lumki, har qanday huquqbuзарлик va salбий иллатларнинг томири оилада шаклланади. Оила шахсни ижтимоий ҳаётга тайёрлаш, маънавий ва ахлоқий тарбиялаш, шахслар билан бўладиган ижтимоий муносабатлар жараёнида ўзини тутиш каби инсоний хусусиятларни шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Шундай қилиб, муайян шахс томонидан жиноят содир этилишига йўл қўймасликка қарши қаратилган огоҳлантириш фаолиятининг дастлабки босқичи профилактикадир.

Бизнингча, профилактика инспекторининг хотин-қизларга нисбатан тазйик ва зўравонликларнинг олдини олишда хотин-қизлар билан ишлаш ва оилада маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мутахассислар иштирокидаги ҳуқуқбузарликларнинг яққа профилактикаси деганда - ушбу турдаги ҳуқуқбузарликларни содир этган ёки содир этишга мойил бўлган шахсларни аниқлаш, ularнинг ҳулқ-атворини, ҳуқуқбузарлик содир этишга олиб келган сабаб ва шароитларни ўрганиш орқали уларга таъсир этиш чораларини қўллашдан

ЖИНОЯТЧИЛИК

УНИНГ КЎПАЙИШИ ЁКИ КАМАЙИШИ АСОСАН ОИЛА МУХИТИГА БОҒЛИК

Республикада мустақиллик йилларида инсон ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш, турли таҳдид ва тажовузлардан ишончли ҳимоя қилиш, хусусан, оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини самарали этишнинг маънавий, ҳуқуқий ва институционал асослари яратилди. Мазкур қонун ҳужжатлари талаблари асосида инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, оила манфаатларини таъминлаш, уларни қўллаб-қувватлаш, шунингдек уларни ҳар қандай қўрилишдаги таҳдид ва тажовузлардан ҳимоя қилиш бўйича республика "Оила" илмий-амалий маркази, Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва уларнинг ҳузуридаги яраштириш комиссияси, хотин-қизлар билан ишлаш ва оилаларда маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мутахассис лавозими, Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи каби махсус институтлар ташкил этилиб, уларнинг фаолияти такомиллаштирилмоқда. Шунга қарамайдан, мамлакатимизда ҳар йили 30 мингдан ортиқ оилаларнинг ажралишига оид ажримлар қайд этилиб, бу масалалар бўйича судларга мурожаат қилганларнинг 70 фоизидан ортиғи оиласида носоғлом ижтимоий-руҳий муҳит, эр-хотин, қайнона-келин ўртасида келишмовчилик ва низолар мавжудлиги кузатилмоқда.

Тахлиллар бугунги кунда шахс ҳаёти ва соғлиғига қарши жиноятларнинг, хусусан қотилликнинг 29 фоизи, қасддан баданга шикаст етказишларнинг 23 фоизи, ҳақорат қилиш ва тўхматнинг 14,5 фоизи айнан оила-турмуш муносабатлари доирасида содир этилаётганлигини кўрсатмоқда. Маълумки, хотин-қизларга нисбатан тазйик ва зўравонликлар доирасидаги муаммолар ўзининг кўп қирралилиги билан ажралиб туради. Бу борадаги муаммоларни ўрганиш, илмий тадқиқ этиш бугунги кундаги ўта долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Хотин-қизларга нисбатан тазйик ва зўравонликлар шахсга қарши ноқонуний куч ишлатиш, қалтаклаш, зўрлаш, мажбур қилиш, таъсир кўрсатиш, ўз ҳукмронлигини ўтказиш каби белгилар орқали ифодаланади. У асосан жисмоний ёки руҳий қўрилишда бўлиши мумкин. Руҳий зўравонлик эса кўп ҳолларда қўрқитиш (бир шахсни иккинчи бир шахс томонидан қўрқитиб бўйсундириш, ўзини кўрсатиш ёхуд ўзига қарам қилиш) шаклида ифодаланади. Руҳий зўравонлик

ХОТИН-ҚИЗЛАР

УЛАРГА НИСБАТАН ТАЗЙИК ВА ЗЎРАВОНЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ

иборат бўлган фаолият деб таъриф бериш мумкин.

Профилактика инспекторининг хотин-қизларга нисбатан тазйик ва зўравонликларнинг олдини олишда хотин-қизлар билан ишлаш ва оила-ларда маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мутахассислар билан ҳамкорлики самарали ташкил этиш учун ривожланган давлатларнинг миллий қонунчилигини ўрганиш фойдадан ҳоли бўлмайди.

Таъкидлаш керакки, ҳуқуқбузарликларнинг махсус профилактикаси доирасида маъмурий ҳудудда яшовчи спиртли ичимликка ружу қўйган шахсларни ўз вақтида аниқлаб, уларни мажбурий даволашга юбориш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, спиртли ичимлик таъсирида келиб чиқадиган ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг энг самарали усули ҳисобланади.

асабийлашишнинг маҳсули бўлиб, бир шахсни қўрқитиб ўзига бўйсундириш, унинг "ихтиёрига зид" ёки "тарбиялаш" мақсадларида қўлланилиши ҳам мумкин. У айбдорга унинг қариндошлари ёки яқин кишиларига нисбатан бевосита қўлланилишида намоён бўлади. Жиноят ҳуқуқи нуқтаи назаридан ҳар хил оғирлик даражасида баданга шикаст етказиш, қалтаклаш ва бошқа жисмоний куч ишлатишни жисмоний зўравонлик деб баҳолаш лозим.

Оилада эр-хотин ўртасида вужудга келадиган низолар криминологик ва психологик хусусиятлари, оқибатлари ҳамда ўзига хос жиҳатлари билан бошқа низолардан тубдан фарқ қилади. Низо иштирокчилари ўртасида кўпинча шахсий манфаатларнинг устун қўйилиши ёки устунликка интилиш каби омиллар биринчи ўринда туради. Маълумки, шахснинг барча ҳатти-ҳаракатлари заминиди ўзининг турли манфаатларини қондириш истағи ётади. "Манфаат" арабча сўз бўлиб, моддий ёки маънавий, жисмоний ёки руҳий фойда, нафни билдиради. Тахлиллар шуни кўрсатмоқдаки, оиладаги жинсий зўравонликнинг содир этилишида эркаклар ўз манфаатини аёллар манфаатидан устун қўйиши каби ҳолатлар бirmuncha кўпроқ кузатилади. Бундай ҳолатлар оилада шахс ҳуқуқлари поймол бўлишига олиб келади.

Оиладаги зўравонлик замирида кўпинча шахс устидан қулиш, ҳақоратлаш, камситиш, таққирлаш кабилар мавжуд бўлади. Бу ўз навбатида, шахсда қасд ёки ўч олиш мотивининг шаклланиши ёхуд бунга жавобан жинсий ҳатти-ҳаракатни амалга оширишга олиб келади. Хотин-қизларга нисбатан тазйик ва зўравонликлар содир этилишини тақозо этувчи шарт-шароитларни ўрганиш жараёнида "омил" атамасидан фойдаланамиз. Омил ижтимоий жараёнлар ва ҳодисаларнинг муайян вазият ёки ҳолат таъсири остида шаклланиши ва ўзгариши натижасида оқибат келиб чиқишини таъминловчи восита вазифасини бажаради. Хотин-қизларга нисбатан тазйик ва зўравонликларни тақозо этувчи омиллар ўрганилиши жараёнида шу нарсалар бўлдики, эр-хотин ҳамда оилада оила аъзолари ўртасида муносабатларнинг самимий эмаслиги ушбу зўравонликнинг содир этилишида "асосий омил" вазифасини ўтар экан. Айниқса, ушбу низоларнинг вужудга келишида низо иштирокчиларининг дунёқараши ва ҳулқ-атвори бир-бирига тўғри келмаслиги зўравонлик содир этилишида муҳим роль ўйнайди. Эр-хотиннинг оилавий ҳаёт тўғрисидаги тасаввурларининг ўзаро мос келмаслиги низо ёки зиддиятлар келиб чиқишининг асосий сабабларидан биридир.

З.ҚУРЁЗОВ,
Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирлиги Академиясининг 3-ўқув курси 316-гурух курсанти.

СТАТИСТИКА ХАБАРЛАРИ

А Х О Л И Р Ё Й Х А Т И
Аҳолини рўйхатга олиш ижтимоий-иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқиш - аҳоли фаровонлигини оширишга ёрдам берадиган қарорлар қабул қилишга имкон ярататади. Хусусан, таълим дастурларини ишлаб чиқиш, соғлиқни сақлаш тизимини яхшилаш, автомобиль йўлларини қуриш каби аҳоли турмуш даражасини юксалтирадиган тадбирлар ҳар бир ҳудуддаги аҳоли сонининг аниқлиги ва унинг ижтимоий таркиби (еш, жинс ва бошқалар) ҳақидаги маълумотлар асосида молиялаштирилади. Аҳолини рўйхатга олиш маълумотлари нафақат қарор қабул қилувчилар, статистика тизими ва қонун чиқарувчи давлат органлари учун, балки тадқиқот ва маркетинг компаниялари, хусусий сектор ва сиёсий партиялар учун ҳам қимматли маълумот манбаи бўлиб ҳисобланади. Рўйхатга олиш олимлар айтганидек, ҳисобларда мавжуд бўлмаган маълумотларни олиш ёки унинг маълумотларини текшириш учун махсус ташкил этилган статистик кузатув тури ҳисобланади. Одатда, аҳолини рўйхатга олиш бир қатор хусусиятлар бўйича статистик кузатув объектининг сони, таркиби ва ҳолати тўғрисида маълумот олиш учун мунтазам равишда амалга оширилади.

ТА Ё Л И М Х И З М А Т Л А Р И
Дастлабки маълумотларга кўра, Хоразм вилоятида 2023 йилнинг январь-март ойларида умумий ҳажми 2715,8 млрд. сўмлик бозор хизматлари кўрсатилган бўлиб, шундан 4,4 фоизи ёки 121,1 млрд. сўми таълим хизматлари ҳиссасига тўғри келган. Тахлиллар ўтган йилнинг шу даврига нисбатан таълим хизматлари ҳажмида 13,8 фоиз ўсиш кузатилганини кўрсатмоқда. **ВИЛОЯТИМИЗДА НЕЧТА КИЧИК КОРХОНА ВА МИКРОФИРМА ФАОЛИЯТ ЮРИТАЁТГАНИНИ БИЛАСИМИ?** Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик мамлакатимиз иқтисодиётининг асосий бўғини ҳисобланиб, бугунги кунда уларнинг сони ошмоқда. Хусусан, 2023 йилнинг 1 апрель ҳолатига Хоразм вилоятида фаолият юритаётган корхона ва ташкилотлар сони 25 312 тани ташкил этган бўлса, шундан 22 114 таси кичик корхона ва микрофирма ҳисобланади. 2022 йилнинг шу даври билан солиштирилганда кичик бизнес субъектлари сони 1,3 фоизга ошган.

Жорий йилнинг дастлабки уч ойида вилоятимизда 1 438 та янги кичик бизнес субъектлари ташкил этилди.

Статистик маълумотлар вилоят статистика бoshқармаси ахборот хизмати материаллари асосида тайёрланди.

Ўзбекистон Бadiiy академияси тасarrufидagi Xorazm ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati 2023-2024 o'quv yili uchun tasviri san'at yo'nalishi bo'yicha 1-sinfga **QABUL E'LON QILADI**. Qabul 1-iyundan 1-iyulgacha tanlov asosida amalga oshiriladi. Manzil: Urganch shahri, 4-daha, Zarbuloq ko'chasi. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon raqamlari: +998 62 229 38 61, +998 93 465 20 25.

СЎЗ — ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕМИЯСИ БИТИРУВЧИЛАРИГА

АҲОЛИ ЎРТАСИДА

ХУҚУҚИЙ ТАРҒИБОТ ФАОЛИЯТИ

Ушбу долзарб вазифаларни муваффақиятли ҳал этишда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги фармони муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, мазкур фармонда қуйидаги вазифалар илгари сурилган:

- аҳолига мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар, қабул қилинаётган қонун ҳужжатлари ва давлат дастурларининг мазмунини ва моҳиятини изчил етказиш тизимини шакллантириш, фуқаролар онгда "Жамиятда қонунларга ҳурмат руҳини қарор топтириш - демократик ҳуқуқий давлат куришнинг гаровидир!" деган ҳаётий ғояни мустаҳкамлаш;
- жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда энг аввало, таълим-тарбиянинг тизимли ва узвий равишда олиб борилишига алоҳида эътибор қаратиш, мактабгача таълим тизимидан бошлаб, аҳолининг барча қатламларига ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни чуқур сингдириш, шахсий манфаатлар ҳамда жамият манфаатлари ўртасидаги мувозанатни сақлаш ғояларини кенг тарғиб қилиш;
- ёш авлод онгига ҳуқуқ ва бурч, ҳалоллик ва поклик тушунчаларини ҳамда одоб-ахлоқ нормаларини чуқур сингдириб бориш, Конституциянинг муҳим жиҳатларини уларга болалигидан бошлаб ўргатиш;
- аҳоли ўртасида ҳуқуқий маданиятни шакллантириш бўйича ҳуқуқий-маърифий тадбирларни халқимиз тарихи, дини, миллий кадриятларини ўргатиш билан уйғун ҳолда ташкил қилиш, шунингдек, ҳар бир фуқарода давлат рамзлари билан фахрланиш туйғуларини шакллантириш орқали мамлакатга дахлдорлик, ватанпарварлик ҳиссини кучайтириш;
- давлат хизматчиларининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириб бориш, уларда коррупция ва бошқа ҳуқуқбузарликларга нисбатан муросасизлик муносабатини шакллантириш;
- давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, шу жумладан, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамда фуқаролик жамияти институтларининг манзилли ҳуқуқий тарғиботни амалга ошириш борасидаги ўзаро ҳамкорлигини мустаҳкамлаш;
- жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни оширишга доир тадбирларни ташкил этишда ижтимоий шериклик принципларидан кенг ва унумли фойдаланишни тизимли асосда йўлга қўйиш;
- оммавий ахборот воситаларининг ҳуқуқий ахборот билан таъминлашдаги ролини ошириш, ҳуқуқий тарғиботнинг инновацион усулларида кенг фойдаланиш, шу жумладан, веб-технологияларни қўллашни кенгайтириш;
- юридик таълимни такомиллаштириш, шунингдек, юридик кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини ривожлантириш;
- жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришнинг илмий асосларини чуқур тадқиқ этиш.

Н.МАТЕҚУБОВ,

314-гуруҳ курсанти, сафдор.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ

УЛАРНИ ЖИНОИЙ УЮШМАЛАР ВА УЮШГАН ГУРУХЛАР ШАКЛЛАНИШИГА ҚАРШИ ЖИНОИЙ-ХУҚУҚИЙ КУРАШ ОЛИБ БОРИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Бизга маълумки, ҳар қандай давлат идораси бошқа идоралар билан ҳамкорликни ташкил қилмасдан туриб, ички имкониятлари доирасида ўз фаолиятининг самарадорлигини таъминлай олмайди. Профилактика инспекторларининг гуруҳий жиноятчиликнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этишда ички ишлар органларининг бошқа хизмат ходимлари билан ҳамкорликдаги фаолияти жиноятчиликка қарши курашишда катта аҳамиятга эгадир. Бунда жиноий уюшмалар шаклланиши ва улар томонидан жиноят содир этилиши, жиноят содир этган шахсларни ўз вақтида аниқлаш, маъмурий ҳудуддаги криминален вазият барқарорлигини таъминлаш, гиёҳвандлик ва ичкиликбозлик оқибатида содир этиладиган оғир ва ўта оғир жиноятларнинг олдини олишда кенг қамровли чора-тадбирларни амалга оширишни талаб этади. Таъкидлаш керакки, жиноий уюшмалар ва уюшган гуруҳлар шаклланишининг олдини олиш ва уларга йўл қўймаслик ҳар бир жамиятда амалга ошириладиган ижтимоий профилактик чора-тадбирларнинг узвий қисми ҳисобланади.

Жиноий уюшмалар ва уюшган гуруҳлар шаклланишининг олдини олишда профилактика инспекторларининг ички ишлар органларининг бошқа хизматлари билан ҳамкорлиги ҳар хил бўлиши мумкин. Бу эса рецедив жиноятларнинг олдини олиш бўйича профилак-



рий назорат қонун таъсирига тушувчи шахсларнинг устидан доимий назоратни олиб боришдаги ҳамкорлигини амалга ошириш;

- жиноят содир этишга мойил бўлган, қидирувда юрган шахслар, уларнинг алоқалари шунингдек, қўтилаётган жиноятлар тўғрисида мунтазам равишда ахборот алмашувини амалга ошириш ва бошқа йўналишларда ишларнинг ташкил этилиши рецедив жиноятларнинг олдини олишда муҳим омилдир.

Хулоса қилиб айтганда, жиноий уюшма ва уюшган гуруҳлар жиноятда иштирокчиликнинг алоҳида шакли бўлиб, жиноятчиликнинг энг уюшқоқ, юқори поғонаси ҳисобланади. Жиноий уюшма ва уюшган гуруҳнинг иштирокчиликнинг бошқа шаклларида фарқини кўрсатувчи белгиларини аниқлаш, жамиятда нақада юқори ижтимоий ҳавф тўғрисидаги кўрсатиш ва унга қарши жиноий-хуқуқий кураш олиб бориш ғоят муҳимдир.

У.МАТЕҚУБОВ,

310-гуруҳ курсанти, сафдор.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИ

УНИНГ МИГРАЦИЯ ВА ФУҚАРОЛИКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ХИЗМАТЛАРИ БИЛАН ПАСПОРТ-ВИЗА ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ФАОЛИЯТИ

Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари энг аввало, Конституция билан кафолатланган бўлиб жумладан, 28-моддада "Ўзбекистон Республикаси фуқароси Республика ҳудудида бир жойдан иккинчи жойга қўчиш, Ўзбекистон Республикасига келиш ва ундан чиқиб кетиш ҳуқуқига эга. Қонунда белгиланган чеклашлар бундан мустаснодир", - деб фуқароларнинг яшаш жойини танлаш борасидаги ҳуқуқлари белгиланган.

Паспорт виза қоидалари - Ўзбекистон фуқаролари шахсини тасдиқлайдиган паспортларни бериш ҳамда аҳолини ҳисобга олиш, унинг мамлакат ҳудудидаги ҳаракатини тартибга солиш, Конституцияда белгиланган қўйилган ҳуқуқлар амалга оширилишини, фуқаролар ўз бурчларини бажаришларини таъминлаш, жамоат тартиби ва давлат хавфсизлигини муҳофаза қилиш мақсадида аҳолини истиқомат жойида рўйхатга олиш ва рўйхатдан чиқариш, чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистонга келиш ва унда бўлиш, яшаш тартибини белгиланган ҳуқуқий нормалар йиғиндисидир. Ўзбекистон Республикаси фуқаролари қуйидаги паспорт-виза қоидаларига риоя қилишлари лозим:

- 1) 16 ёшга тўлганда фуқаролик паспортини олиш;
- 2) паспортини мuddати тугаганда ўз вақтида алмаштириш;
- 3) яшаб турган жойида доимий ёки вақтинчалик рўйхатдан ўтиш;
- 4) хорижий давлатларга беришлари учун виза олиш;
- 5) хорижий давлатлардан ўз вақтида визада белгиланган мuddатларни ўтказмасдан қайтиб келиш;
- 6) 5 йилдан ортиқ мuddатга хорижий мамлакатларга кетганда Ўзбекистоннинг мазкур давлатдаги элчихонаси ёки консуллик ваколатхонасидан рўйхатдан ўтиб туриш;
- 7) фуқаролик паспортини яроқсиз ҳолатларга келтирмаслик, ундан ғаразли

мақсадларда фойдаланмаслик ва гаровга бермаслик.

Профилактика инспекторининг миграция ва фуқароликни расмийлаштириш хизмати ходимлари билан ҳамкорлигининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат:

- ҳудудда истиқомат қилувчи фуқароларнинг паспорт виза қоидаларига риоя этишларини таъминлаш;
 - чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистонда бўлиш қоидаларига риоя этишларини таъминлаш;
 - узоқ мuddатга бошқа давлатларга чиқиб кетган Ўзбекистон фуқароларининг ҳисобини юритиш;
 - аҳолининг фуқаролик билан боғлиқ қонун ҳужжатлари талабларига оғишмай риоя этишларига хизмат қиладиган ҳуқуқий тарғибот ишларини олиб бориш.
- Ўзбекистонда бўлиш қоидалари бўйича қуйидаги тартиблар урнатилган:
- хорижий фуқаролар жумладан, Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатлар фуқаролари, фуқаролиги бўлмаган шахслар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органлари томонидан белгиланган тартибда яшаш учун берилган гувоҳномаси бўлгандагина доимий қайддан ўтиш ҳуқуқига эга;
 - Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатларнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудида уч кундан ортиқ бўладиган фуқаролари истиқомат жойида вақтинчалик қайддан ўтиши шарт;
 - хорижий фуқаролар жумладан, Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатлар фуқаролари, фуқаролиги бўлмаган шахслар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органлари томонидан белгиланган тартибда яшаш учун берилган гувоҳномаси бўлгандагина доимий қайддан ўтиш ҳуқуқига эга;
 - Ўзбекистон Республикасига кириш визаси билан келган хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахслар визада кўрсатилган мuddат билан вақтинча қайд этилади.

Жамшид РОЗУМБАЕВ,

310-гуруҳ курсанти.

Бугунги кунда Президентимиз томонидан профилактика инспекторларига катта эътибор қаратиб келинмоқда. Шу ишонча муносиб бўлиш учун улар кеча-кундуз ўз вазифаларини сидқидилдан бажариб келмоқдалар. Профилактика инспекторларининг вазифаларидан бири узоқ мuddатга кетган ёшлар билан ишлаш фаолияти ҳисобланади.

Ёшлар (ёш фуқаролар) - ўн тўрт ёшга тўлган ва ўттиз ёшдан ошмаган шахслар. Узоқ мuddатга кетган шахс - доимий яшаш манзилдан турли сабабларга қўра, яъни: ишлаш, даволаниш, дам олиш, саёҳат қилиш, хизмат сафари, ўқиш, танишларини кўриб келиш ва бошқа мақсадларда республика ҳудудидан бир ойдан кам бўлмаган мuddатга чиқиб кетган шахслар.

"Уюшмаган ёшлар" тушунчаси ҳақида сўз борар экан, ушбу ибора мантиқан олиб қараганда, "уюшмаган" сўзи "уюшқ" ёки "уюшма" сўзларининг акси, яъни антоними бўлиб, "жиқслашмаган, аҳил бўлмаган, муайян бир мақсад йўлида биргаликда ҳаракат қилиш учун бирлашмаган" маъноларини англатади. Уюшмаган ёшларга хос хусусиятлар бўйича давлатимиз раҳбари ҳамда олимларнинг фикрлари, шунингдек ўтказилган анкета сўрови натижаларига асосланган ҳолда, қуйидагиларни уюшмаган ёшларга хос бўлган асосий хусусиятлар сифатида ажратиб кўрсатиш мумкин:

- ўз мақсадини давлат ва жамият манфаати билан уйғунлаштириш қўнғимасига эга эмаслик;
- ижтимоий фаоллиги, сиёсий, ҳуқуқий онги ва маданият даражаси пастлиги;
- ишламаслик ёки ўқимаслик (ҳарбий хизмат ва жиноий жазони ўтаётган шахслар бундан мустасно);
- тайин бир машғулота эга бўлмаслик;
- салбий таъсирларга, шу жумладан "оммавий маданият" ва ёт ғоялар таъсирига берилувчанлик;
- ижтимоий ҳаётда муайян аниқ мақсадга эга бўлмаслик;
- ўн тўрт ёшга тўлганлик ва ўттиз ёшдан ошмаганлик.

Шу ўринда уюшмаган ёшларга хос бўлган

ХАР ДОИМ ХАЛҚ ХИЗМАТИДА

биргина хусусият, яъни ишсизликнинг салбий оқибатлари ҳақида тўхталганда айтиш керакки, у жиноятчилик билан бевосита боғлиқ бўлиб, уни озиклантиради ва ўсишига хизмат қиладди. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, ҳозирда республикада жиноят содир этганларнинг ҳар тўрттадан биттасини ишсиз шахслар ташкил қиладди. Криминалогларнинг фикрича, ишсизликнинг 10 фоизга кўпайиши жиноятчиликнинг 3,4-6,5 фоиз ўсишига олиб келади.

Профилактика инспекторлари томонидан маҳалла фуқаролар йиғинларидан ҳисобдан ўтмасдан узоқ мuddатга чет элга чиқиб кетган ёшлар аниқланган ҳолларда қуйидагилар амалга оширилади:

- профилактика (катта) инспектори узоқ мuddатга кетган шахснинг доимий яшаш жойи бўйича суриштириш ишларини амалга ошириб, шахснинг ота-онаси, турмуш ўртоғи ва бошқа яқин қариндошлари билан суҳбат ўтказиши.
- Суҳбат жараёнида узоқ мuddатга кетган шахснинг оила аъзоларига турли чет эл давлатларига кетган шахслар жиноятга қўл ураётганликлари учун озодликдан маҳрум этилаётганлиги, одам савдоси қурбони бўлаётганлиги тўғрисида тушунтириш олиб боради шунингдек улардан қариндошининг узоқ мuddатга кетишининг тўлиқ тафсилоти бўйича тушунтириш хатлари олади;
- узоқ мuddатга кетган шахснинг қўни-қўшнилари ва яқин алоқада бўлган шахслар билан суҳбатлашиб, улардан яқин танишини охириги марта қачон қўрганлиги, қайси мамлакатга ва нима мақсадда кетганлиги, ким билан қачон кетганлиги ҳақидаги маълумотларни сўраб-суриштириб, қўрган биланлари ҳақида тушунтириш хатлари олади;
- хизмат кўрсатиш ҳудудида истиқомат қилувчи доимий яшаш манзилдан узоқ мuddатга чет эл давлатларига кетган ва қайтиб келган шахсларни аниқлаш чораларини кўриб, ҳар бир шахс бўйича маълумотларни белгиланган тартибда китобларда қайд этиб боради.

Шерзод ЎРИНБОЕВ,

318-гуруҳ курсанти.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ

ФАОЛИЯТИДА ОЗОДЛИКДАН МАҲРУМ ЭТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН ЖАЗОЛАРГА ХУКМ ЭТИЛГАН ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ

бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар билан профилактик суҳбатлар ва бошқа чора-тадбирларни амалга оширади;

Учинчи йўналиш - ижтимоий-ёрдам кўрсатиш, ишга жойлаштириш ва уй-жой билан таъминлашда амалий ёрдам беради ва бошқалар.

Профилактика инспекторининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм этилган шахслар билан ишлаш бўйича асосий вазифалари:

- муайян ҳуқуқдан маҳрум этиш, мажбурий жамоат ишлари, ахлоқ тузатиш ишлари, озодликни чеклаш тартибидеги жазолар ва шартли ҳукм қилинганларнинг рўйхатини юритиш ва уларни таянч пункти ҳудуд паспортига киритиш;
- озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар билан яқка тартибда профилактик суҳбатлар ўтказиб, уларга жазони ўташ тартиби ва шартларини тушунтириш;
- жазо шартларини бузаётганлиги аниқланган маҳкумлар ҳақида пробацция хизматларига хабар бериш;

- озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга тортилган шахсларнинг яқин алоқаларини аниқлаш ва улар ўртасидаги муносабатларини ўрганиш;

- озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазога тортилган шахсларнинг маҳалла фуқаролар йиғинида муҳокама қилинишини таъминлаш, муаммоларини ҳал этишда ёрдам кўрсатиш;

- озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар билан ижтимоий реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш чораларини амалга ошириш;

- озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахсларнинг иш ва яшаш жойида бириктирилган мураббийлар томонидан олиб борилаётган тарбиявий ишлар бўйича маълумотларни умумлаштириб бориш ва ушбу йўналишдаги ишларни кучайтириш ҳамда самарадорлигини ошириш юзасидан тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқишини ташкил этиш;

- пробацция хизмати ходимлари билан маҳкумларнинг иш ва яшаш шароитлари бўйича юзага келадиган муаммолари тўғрисида суҳбатлашиб ва уларни ҳал этишда амалий ёрдам кўрсатилишини сўраш.

Ерлан КОБЕЙСИНОВ,

307-гуруҳ курсанти.

Профилактика инспекторининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм этилган шахслар билан ишлаш фаолиятининг асосий йўналишлари ҳуқуқбузарликлар яқка тартибдаги профилактикасининг чора-тадбирлари асосида белгиланади. Хусусан, мазкур тоифадаги шахслар билан амалга ошириладиган ишларнинг энг муҳим жиҳати, уларнинг қайта ҳуқуқбузарликлар содир этишининг олдини олиш, мавжуд муаммоларини аниқлаш ҳамда бартараф этишда яқиндан ёрдам кўрсатиш, белгиланган жазоларнинг ижросини таъминлашда пробацция хизматлари билан ҳамкорликда ишлаш, маҳалла, жамоа ва оилада ўз ўрнини топишига қўмаклашиш, зарурат туғилганда мажбурият чораларини қўллашдан иборат.

Профилактика инспекторларининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар билан ишлаш фаолиятини қуйидаги йўналишларга ажратиб олиш мумкин:

Биринчи йўналиш - назорат қилиш йўналиши, бунда улар маҳкумларни белгиланган жазоларга, оила ва маҳаллада юриш-туриш қоидаларига риоя қилаётганлигини мунтазам текшириб боради;

Иккинчи йўналиш - яқка тартибдаги тарбиявий профилактик ишлар, озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ

УМРЛАР БЎЛАДИКИ, ТИРИГИДА ЎЛИКДИР,

ИБРАТЛИ ҲАЁТ ЙЎЛИ

У КЎП МЕХНАТ, МАШАККАТ,
ИРОДА ОРҚАЛИ НАМОЁН БЎЛДИ

Умрки, равон, силлик кечмайди. Инсон боласи йикилиб, қоқилиб камолга етади. Ҳаёти давомида тақдирнинг турфа кўчаларига бош суқади. Тушундим, етдим деганда умр карвони охириги манзилга яқинлашиб қолади. Бир пайтлар иккита тор кўчаю тўртта кўп қаватли уйдан иборат бўлган дўппидек Питнакнинг бугунги кум

бағридаги бўстонга, индустрияси ривожланган шаҳарга айланишига муносиб хисса қўшган Комилжон Уразбоевнинг турмуши ҳам доимо ҳаловатда ўтмади. Мактабдан кўра кўпроқ далада ўтган болаликнинг алғов-далғовлари, етар-етмасликда кечган талабалик даврлари, оила икки-чиқирлари, иш ташвишларию кўп йиллик раҳбарликнинг беоромликлари, яқинларидан жудалик...

К.Уразбоев ёшлигидан ҳаракатчан, меҳнатдан қўрқмайдиган бўлиб ўсди. Илмга ихлос қўйди. Хоразм давлат педагогика институтида тахсил олди. 1971-1986 йилларда 22-ўрта мактабда она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси бўлиб ишлади. Ёш мутахассис ўзини буткул касбига бағишлади. Ўғил-қизлар қалбига тилимининг беғуборлигини, адабиётнинг чин маънода ҳаёт ҳақидаги фан эканини сингдиришга уринди. Ўқувчилар билан қўшимча дарслар, тўғарак машгулотлари ўтказиб борди. Ёш авлодни ижодга, шеърятга қизиқтирди. Интилиш, изланишлари сабаб тажрибаси ошиб, мавқеи юксалиб бораётган иқтидорли муаллимни жамоадорлари ўзларига раҳбарликка тавсия этишди. Устозлик даражасига етган педагог илм даргоҳига беш йил директорлик қилди. Бу даврда мактаб нафақат шаҳарда балки, вилоятда етакчи билим масканларидан бирига айланди.

Халқимизда ҳўп ажойиб одат бор. Меҳнат қилганни қадрлашди. Комилжон акани Ҳазорасп туман партия комитетига ишга таклиф этишди. У бу вазифада ҳам мактаблардан қўл узмади аксинча, таълимини, ўқитувчини қўллаб-қувватлади. Ҳам сиёсий, ҳам маънавий томондан тобланган К.Уразбоевни 1990 йилда янада юқориқоқ лавозим - Дўржа шаҳар халқ маорифи бўлими мудириликка тайинлашди. Таъбир жоиз бўлса, ўша кундан эътиборан шаҳар таълим муассасалари ҳаётида янги саҳифа очилди, янги иш услуби жорий қилинди. Бу ўқиш-ўқитиш ишларида, мавжуд мактаб ҳамда болалар боғчаларининг моддий-техник базаси мустаҳкамланишида, янгиларининг барпо этилишида яққол кўзга ташланди.

К.Уразбоевнинг фидойи педагог, етук раҳбар сифатида шаклланишида оила муҳитининг роли катта бўлди. Чунончи, унинг отаси Раҳимберган ака бир неча йил ёш авлодга тарих фанидан сабоқ берган. Узоқ йиллар мактаб директори лавозимида фаолият юритган. Моҳир мураббийдаги ташкилотчилик, ташаббускорлик фазилатлари айнан отасидан ўтган, десак муболаға қилмаган бўламиз.

Юртга, элдошларига халқ таълими бўлимидан кўра мактабда кўпроқ фойдаси тегишини англаб етган Комилжон ака 1997 йилда яна бир пайтлар отаси бошқарган, кейинчалик ўзи директорлик қилган кадрдон даргоҳига қайтди. Ҳаёт қозонида қайнаган устоз бирваракайига йигирма йил катта жамоага раҳбарлик этди. Бутун борлиги, вужуди билан ишлади. Турмуш муаммолари, ташвишларини бетиним меҳнати билан енгди. Мактаб номи Республикадаги илғор таълим масканлари қаторида тилга олинган бўлди. Ўзбекистон тарихида халқ таълими вазири бўлиб энг кўп ишлаган Жўра Ганиевич Йўлдошевнинг бир неча бор К.Уразбоевнинг мактабда бўлганлиги, тажрибаларига қулоқ тутганлиги бежиз эмас.

Комилжон ака ишда ўзини аямади. Устига-устак тақдирнинг аччиқ қисматларига дуч келди. Айниқса, не-не умидлар билан педагогик маълумот олиб, мустақил ҳаёт оstonасида турган қизидан ажралиш устоз иродасини букди. Бу дарду ғам ўткинчи эмасди, падарнинг юрагига жароҳат солганди.

2020 йилнинг 25 январь тонгини питнакликлар айниқса, таълим тизими ходимлари нохуш хабар билан қарши олишди. Ва ... гўё таълим учун яралган ҳамда бутун ҳаётини шу соҳа тараққиётига бағишлаган забардаст педагог, устоз мураббийни кўзларида ёш, қалбларида надомат билан сўнгги йўлга кузатишди.

Эл ардоқлаган инсон ҳаётга тўймай сал эртароқ кетди. Лекин минг шукурки, ўзидан яхши ном, солиҳ фарзандлар, муносиб шогирдлар, яна ўнлаб йиллар эслашга арзийдиган ишлар қолдириб кетди. Энг асосийси, бугун шаҳар кўчаларини кезган ҳар қандай киши уни Комилжон аканинг тарбиясини олган инсонлар барпо қилганлигини, ҳозир ҳам худуднинг келажаги йўлида тер тўкишаётганлигини ҳис этади.

Ф.МАШАРИПОВ,
журналист.

Мен Комилжон ака билан узоқ йиллар бирга ишладим. Шу боис уларнинг барча хислатлари, фазилатларини яхши биламан. Айниқса, устозга ўқув-тарбия ишлари бўйича ўринбосарлик қилган даврларимда уларни янада яқиндан англаш имкониятига эга бўлганман.

К.Уразбоев ўта ҳалол, пок, шу билан бирга виждонли, масъулиятли, қаттиққўл инсон эдилар. Ҳар қандай топшириқни белгиланган вақтидан олдин бажаришга интилардилар. Атрофидагиларни ҳам шунга ундардилар. Устознинг ўзларига яраша иш услублари бор эди. Мутахассисликлари она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси бўлганлиги учунми ёки ёшларнинг фикрлаш доирасини, дунёқарабини билиш учунми ишга янги қабул қилинаётган ўқитувчиларнинг қанча шеър ёдлагани, қайси китобларни ўқигани билан қизиқардилар. Асар қаҳрамонлари ҳақида савол берардилар.

Комилжон акада яна бир одат бор эди. Аълочи, қобилиятли ўқувчиларнинг уйларига бориб, ота-оналарига фарзандини олий таълим муассасаларига ўқишга юборишини тайинлардилар. Ўқимишли



К.Уразбоев 60 ёшлик юбилей тўйида устозлари, шогирдлари билан. 2013 йил.

БИРГА ИШЛАГАНИМДАН ФАХРЛАНАМАН

1991 йилнинг августи эди. 1-ўрта мактабда ўқув-тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари бўлиб ишлаётгандим. Бир пайт шаҳар халқ маорифи бўлимининг мудири К.Уразбоев йўқлаётганлигини айтишди. Ҳар хил хаёлга бордим. Қандай айб қилдим экан деган ўй миямни банд этганди. Ниҳоят, минг исти-хола билан қабулига кирдим. Самимий, очик чеҳра билан кутиб олди. Ишимни, бола-чақамни сўради. Гап ораси маорифга кадрлар бўлимининг бошлиғи этиб ишга олмоқчилигини билдирди. Уйланиб қолдим. Кеча билан кундузнинг, иш куни билан дам олиш кунининг фарқида бормайдиган, бунинг устига талабчан раҳбар билан ишлашиб билармикинман? Хуллас, пешонамга шу вазифа битилганга ўхшайди.

Комилжон ака номига, ҳўжа-кўрсинга ишлашни ёқтирмасди. "Иш эрмак бўлмасин" деган иборани тез-тез ишлатарди. Ўзи меҳнатни умрининг мазмунига айлантирганди. Мудир сифатидаги фаолиятини қозоқ тилида ўқитиладиган мактаб ташкил этишдан бошлади. Чунки 1990 йилда шаҳарда 400 га яқин ушбу миллатга мансуб ўқувчи ёшдаги ўғил-қизлар бор эди. "Нукус" совхозида яшовчи аҳолининг 100 нафардан зиёд фарзанди 10-12 километр узоқликдаги мактабга қатнаб ўқирди. К.Уразбоев давлат ҳўжаллиги раҳбарияти олдига масалани кўндаланг қўйиб, худуднинг ўзида мактаб очишга эришди.

Давр мустақил юртимизга билимли, иқтидорли ёшларни тайёрлаб беришни тақозо қилаётганди. Замон талабини биринчилардан бўлиб илганан Комилжон ака 1994 йилда физика-математика, кимё-биология фанларини чуқур ўқитишга ихтисослаштирилган лицей ташкил этишга қўл урди. Дастлабки йили 50 ўқувчи қабул қилинган илм даргоҳида бугун

УСТОЗ БОСГАН ИЗЛАР

ХАР КАДАМДА УСТОЗНИ
ЭСЛАТИБ ТУРИБДИ

инсонлар қанча кўп бўлса маҳалла, юрт шунчалик обод бўлишини тушу-тирардилар. Битирувчиларнинг ҳужжатларини ўзлари олиб бориб институтларга топшириб келардилар.

Устоз қўлотидагиларининг ҳаммасига бирдай меҳрибон, талабчан эдилар. Хусусан, ўқитувчиларга кўп иш буюрардилар. Кўрғазмали қурол яшаш, тадбир уюштириш, ҳар хил мусобақалар ўтказиш, очик дарс ташкил этиш, мактаб ер участкасига кўчат ўтқазиш, парваришlash, теварак-атрофни ободонлаштириш ва ҳоказо. Мақсадлари битта - меҳнатда тоблаш, ишга чиниқтириш эди. Яна айтардиларки, уй ташвишини мактабга, мактаб ташвишини уйга ташиманг, ҳар қайсиси ўз жойида қолсин!

Мен ҳамкасбларим қатори К.Уразбоевдан кўп нарсга ўргандим. Афсус, дунёдан эрта ўтишларини билмадим. Агар билсам янада кўпроқ ўрганишга ҳаракат қилардим. Устоздан олганларим бугун фаолия-

тимда асқотмоқда. 2019 йилда уларнинг маслаҳатлари, тавсиялари билан ўзлари ўтирган курсига ўтирдим. Қистовлари билан ўтиришга ўтирдиму ваҳима босди. Шунчалик катта жамоани устоз даражасида бошқариб биламанми? Мактабнинг мавқеини устоз олиб чиққан чўққида сақлай оламанми? Ахир, бу табаррук маскандан ўттизга яқин турли даражадаги олимлар етишиб чиққанку! Машҳур спортчилар, фан олимпиадаси ва "Ил ўқитувчиси" танловининг Республика ғолибларичи?!.. Йўл-йўриқ сўрайвериб нафақада ўтирган устозимни тинч қўймагандим.

Дарсдан кейин, баъзан дам олиш кунлари синф хоналарини, мактаб ён-атрофини айланаман. Ҳар қадамда Комилжон аканинг оёқ изларини кўргандай, меҳрларининг илиқ тафтини туйгандай бўламман. Гўё, қаршимдан чиқиб аҳолиимни сўрашга, насихат қилишга чоғланаётгандек кўринаверади. Беихтиёр ўз-ўзимга пичирлаб қўяман: ишон-чингизни оқлашга ҳаракат қиламан устоз, руҳингиз шод бўлсин!

Ёқуббой ЯРАШЕВ,
шогирди, 10-умумтаълим
мактаби директори.

СИЗДАН МИНГ БОРА
МИННАТДОРМАН, УСТОЗ!

Устоз бизларга она тили ва адабиёт фанидан дарс берардилар. Юқори синфда ўқиб юрган кезларим бир куни хоналарига чақириб, "қизим, сендан келажақда яхши ўқитувчи чиқади, ўқишларингни бўшаширма, ота-онанга ўзим тушунтираман" дедилар. Аммо мен оқ халат кийган дўхтирларни кўрсан, уларга ҳавас қилиб шифокор бўлишни орзу этардим. Устознинг мактабда ўқитувчилар етишмаслиги, айримларининг қўшни туманлардан катнаб ишлаётганликлари тўғрисидаги қуюнчақ фикрлари, сенда муаллималикка мойиллик бор дея кўнглимни кўтаришлари ниятимни ўзгартирди. Қалбимда ўқитувчиликка бўлган қизиқиш кун сайин орта борди.

Оилавий шароитим туфайли 1995 йилда Хива педагогика касб-хунар коллежини сиртдан ўқиб битказдим ва ҳозир фаолиятимни олиб бораётган мактабга ишга келдим. Орадан сал ўтиб, К.Уразбоев билим даргоҳимизга директор қилиб тайинландилар. Биринчи учрашувимиздаёқ устоз менга "сен олий маълумот олишинг керак, изланишдан тўхтама" дедилар. Ўша пайтда бахтимизга олий таълим муассасаларида махсус сиртқи бўлимлар очилди. Аммо... менинг имкониятим йўқ эди.

Бир куни Комилжон ака чақириб қолдилар. Кутганимдай, ўқиш масаласи экан. "Устоз, биз янги уйга кўчиб ўтдик, таъмир ишларимиз ҳали чала, бунинг устига болаларим ёш қолаверса, пойтахтга бориб ўқиш учун таъминотимиз ҳам яхши эмас" дедим. Улар қатъий оҳангда нима дедилар дегн: "фақат ўқиб олий маълумот олсангинга ҳамма ишларингга улгурасан!" Эртасига эрталаб ўғиллари Нейматжон билан бир даста пул бериб юборибдилар. Кўзларимга ёш келди. Эрим билан маслаҳатлашиб ўқишга борадиган бўлдим. Шу ўринда бир нарсани айтишим керак. Қ.Уразбоев турмуш ўртоғимнинг ҳам Ўзбекистон Миллий университетида тахсил олишига сабабчи бўлганлар.

Ҳаёт ташвишларидан ҳоли пайтларим хаёлга бериламан. Бизнинг ўқшимиз, келажақда ўзимизга тўқ яшашимиздан устозга наф бормиди? Ёки бегоналарни киссаларидан пул бериб ўқишга юборадиган даражада давлатлари ошиботишиб ётганимди? Йўқ! Улар иш одамини фарқлардилар. Мен каби яна 3-4 ўрта махсус маълумотли касбдошларимизни олий таълим даргоҳларида сиртдан ўқитдилар. Ва бугун улар устоз ишончини оқлаб, руҳларини шод этиб эртаминг давомчиларига сидқидилдан таълим-тарбия бермоқдалар.

Баъзан йўлим тушиб, Комилжон аканинг уйлари олдидан ўтиб қолсам кўнглим бўшашиб кетади, гоҳ-гоҳ кўзларимга ёш инади. Сабаби ўша инсоннинг далдалари, қўллаб-қувватлашлари билан мен олий маълумотли бўлдим. Бахтли оиланинг бекаси, бахтиёр онаман. Устоз ўғитларига амал қилаётганим боис жамоамизда ҳам ўрним, ҳурматим бор. Ҳамма-ҳаммаси учун сиздан миннатдорман, Комилжон ака! Қабрингиз иймон нурлари-ла нурафшон, охиратингиз бундан-да одиб бўлсин!

Ёдгора МАТНОВ,
шогирди, 10-умумтаълим мактаби-
нинг бошланғич синф ўқитувчиси.

Отахон ЛАТИПОВ,
ҳамкасби.

УМРЛАР БЎЛАДИКИ, ЎЛГАН ОДАМ ТИРИКДИР

ФАҚАТ ЎҚИТУВЧИ ЭМАСДИ

Халқимизда "Бўладиган бола бошидан маълум" деган ибора бор. Комилжонни ҳеч ким мендан кўп ва яхши билмайди. Боиси уни 2-синфдан ўқитганман. Келажақда қандай, нималарга қодир бўлиб шаклланишини пайқаганман. Ва унга ихлос қўйиб, алоҳида эътибор қаратиб таълим-тарбия берганман.

Комилжонни ўзимга яқин туғганимнинг сабаби мен ижодкор педагогман. Унлаб китобларим нашр этилган. Ҳаётимни адабиётсиз тасаввур қилолмайман. Комилжонда ҳам бадиий ижодга қизиқиш борлигини англаб уни шу томонга йўналтирганман. Аниқроғи, устозлик этганман. Ва иккиланмай айтишим мумкинки, шогирдим нафақат ўз фанининг чуқур билимдони айна пайтда иқтидорли шоир, овози ёқимли суҳандон, қалами ўткир муҳбир, моҳир нотик ҳам эди. К.Ўразбоевнинг ўнлаб илмий-методик мақолалари, педагогик анжуманлардаги маърузалари адабиёт ўқитувчиларига қўлланма бўлди десам адашмайман.

Мен Комилжонни кўнглимга яқин олганим, қаттиқ ҳурмат қилганимнинг яна бир боиси бор.

У бутун иш фаолияти давомида китобни тарғиб этиб ўтди. Шогирдим қатнашган давраларда сўз фақат китоб, адабиёт, шеърят хусусида борарди. У китобнинг ҳар бир инсонга дўст, сирдош, йўлини ёритувчи маёқ эканлигини тушунтиришдан чарчамасди.

К.Ўразбоев инсонда бўлиши керак бўлган барча ижобий фазилатларни ўзида мужассам этган киши эди. У оила бошлиғи сифатида ҳам, педагог сифатида ҳам, раҳбар сифатида ҳам ўзига хос тажриба ва ҳаёт мактаби яратди. Питнақда унинг илму зиёси кириб бормаган уй, таълим-тарбиясини олмаган инсон йўқ. Шунинг учун ҳам шаҳар аҳли Комилжонни фақат яхши хотиралар билан эслайди.

Мақсуд Шайхзодада шундай сатрлар бор:

Умрлар бўладик, тиригида ўликдир,
Умрлар бўладик, ўлган одам тирикдир.

К.Ўразбоев орамизда жисман йўқ. Лекин унинг хотираси, эзгу ишлари авлодлар қалбида абадий яшайди.

Саъдулла МАТЁКУБОВ,
устози, Ўзбекистон Республикаси халқ маорифи аълочиси.

КЎШ САҲИФА УСТОЗ МУРАББИЙ, ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ АЪЛОЧИСИ КОМИЛЖОН ЎРАЗБОВЕВ ХОТИРАСИГА БАҒИШЛАНАДИ.



Устоз маҳалла фаоли, шогирди Султонбой Яхшибоев билан. 2013 йил.

ОЛИМЛАРНИ ЕТИШТИРГАН ДАРГОХ
МУҚАДДАСЛИГИ, ФИДОЙИ МУАЛЛИМЛАРИ
ИЛА ЮРАГИМИЗДАН ЖОЙ ОЛГАН

Рўйхатни яна узоқ давом эттириш мумкин.

Албатта, бу муваффақиятлар замирида устоз ва улар бошқарган педагогик жамоа аъзоларининг нечоғлик машаққатли меҳнатлари, интилиш ва изланишлари ётганлигини пайқаш қийин эмас. Мен гарчи, ёш бўлсамда, Комилжон аканинг ўзларини таълимга, ёшлар камолотига бағишлаганликларини чуқур хис қиламан. Бинобарин, уларнинг эскириб қолган мактаб учун янги бино қуриш ташвишини орқалаб неча неча идораларнинг эшигини қоқанликларини бугун Питнақ эли яхши билади. Ва айтиш мумкинки, устоз 1986 йилда 320 ўринли, 2015 йилда 160

ўринли қўшимча бино қурилишига бош-қош бўлиб, янги мактаб асосчиси сифатида шаҳар тарихи саҳифасига номларини муҳрладилар.

К.Ўразбоев илм одамларини гоёат ҳурматлардилар. Илм олиш йўлида ҳаракат қилаётган ўғил-қизларни ҳар томонлама, лозим бўлса, моддий жиҳатдан ҳам қўллаб-қувватлардилар. Ўзим устознинг бир ўқувчиси сифатида Ўзбекистон Миллий университетининг механика-математика факультетида таҳсил кўрдим. Улар одатлари бўйича ҳар таътилга келганимда албатта, учрашиб ўқишимни, қандай яшаётганимни сўрадилар. Олийгоҳни тугатганимдан кейин

"сен олим бўлишинг керак, шунга ҳаракат қил" деб талаб қўярдилар. Устознинг истакларини амалга оширдим. 2018 йилда номзодлик диссертациямни муваффақиятли ҳимоя қилдим. Комилжон аканинг қувонганларини кўрсангиз эди. Мени бағрларига босарканлар, кўзларидан ёш чиқиб кетди.

Устоз нафақат менинг, оиламизнинг ҳам яқин кишиси эдилар. Боиси улар отамни ҳам ўқитганлар. Ҳатто, отам уйланганларида тўйга ўзлари бошқош бўлишган. Мен ана шундай олийжаноб инсоннинг ўқувчиси бўлганимдан, шундай табаррук зотнинг илму маърифатидан баҳраманд бўлганимдан фахрланаман.

Дониёрбек ЯХШИБОВЕВ,
Тошкент ахборот технологиялари университетининг биринчи проректори, техника фанлари номзоди, доцент.

ҲАЁТДА НИМАГА ЭРИШГАН БЎЛСАМ
УСТОЗИМ МЕҲНАТИ ТУФАЙЛИ ЭРИШДИМ

чемпионати ва кубоги қолибига айландим. Уч карра Марказий Осиё чемпиони, кўп карра халқаро турнирлар қолиби, икки карра жаҳон чемпиони ҳамда катталар ўртасида Осиё чемпиони бўлдим. Қора белбоғ соҳибаси, Ўзбекистонда спорт устасиман.

Устознинг уйларида шахсий кутубхоналари бўларди. У ерда мен каби китобга, ижодга қизиқадиган ёшлар билан машғул ўтардилар. Ҳар гал қайсидир мусобақага кетишимдан олдин битта китоб совға қилиб юборардилар. Дуо қилардилар.

Комилжон ака менга "Сен келажақда катта инсон бўласан, билиминг, қобилиятинг бор", дердилар. Улар юракдан тилаган эканларки, айтганлари ижобат бўлди. Лекин бу ютуқларимни ўзлари кўролмаётган кетганликларини дилимни хижил қилади.

Ҳаётда нимага эришган бўлсам, устоз меҳнатлари туфайли эришдим. Шу боис босаётган ҳар бир қадамимда, олаётган ҳар бир нафасимда уларнинг ҳақларига дуо қилияпман. Охиратингиз бундан-да обод бўлсин, устоз!

Нодира ЖУМАНИЁЗОВА,
вилоят ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармаси бошлиғи.

соҳадан нафақага чиқиб, ҳозирда Тупроққалъа тумани Президент халқ қабулхонасининг мудири лавозимида иш олиб борапти. Неъматжон Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академиясида кафедра мудири вазифасида фаолият юритаётди. Муҳайё инглиз тили фани ўқитувчиси бўлиб отаси ишлаган мактабда ота касбини давом эттирмоқда. Моҳира эса қишлоқ врачлик пунктида элдошлари соғлигини муҳофаза қилишда жонбозлик кўрсатяпти.

Мен К.Ўразбоев билан 1973 йилдан бирга ишлашдим. 1986 йилда тарбиявий ишлар бўйича директор ўринбосари бўлдим. Улардан ўрганганларим шу бўлдики, раҳбар одам

ишга ҳаммадан олдин келиб, ҳаммадан кейин кетиши керак. Ишни вақт билан эмас, натижа билан ҳисоб-китоб қилмоқ даркор.

Комилжон ака чинакам фидойи инсон эдилар. Мен уларнинг сиймосида ҳақиқий зиёли, тарбиячи, етакчини кўрганман. Эртага ўрнимизга устоздай ватанпарварлар келишини тилаб қоламан.

Тўхта ПОЛВОНОВА,
халқ таълими фахрийси.

У Н У Т И Ш Г А
ХАҚҚИМ ЙЎҚ

Комилжон менинг синфдош дўстим эди. Болалигимиздан жуда аҳил ўсдик. Бирга дарс тайёрлардик, бирга ўйнардик. Сирдош тутиндик. Ҳатто, 1969 йилда ўқишга кириш учун пойтахтга бирга кетдик. У Тошкент давлат университетининг филология, мен тарих факультетига ҳужжат топширдик. Аммо чуқур тайёргарлик кўрмаганимиз боис омадимиз чопмади. Уйга қайтиб яна биргаликда тайёрлана бошладик. Ниҳоят, орзуимизга етдик.

Дўстим ниҳоятда қатъиятли йигит эди. Олдига қўйган мақсадига эришмагунча тиниб-тинчимасди. Ёлғонни, фирромни, юзакичиликни мутлақо ёқтирмасди. Шу сабаб бутун умр ҳалол, пок яшаб ўтди. Аслида адабиётга, ижодга ошуфта қалб шундай бўлади. Комилжон ўзини буткул китобга бағишлаганди. Ҳатто, Тошкентга биринчи марта бориши бўлсада, шаҳарни яхши билмасада, буюк ёзувчи-шоирларнинг асарларини топиб, сотиб олиб келарди. Бир гал Уйғун ва Иззат Султоннинг "Навоий" драматик композицияси ёзилган пластинкани кўтариб келибди. Уни қайта-қайта эшитиб, уч-тўрт кун ичида бош қаҳрамонларнинг монологларини ёд олди.

К.Ўразбоев гўё меҳнат учун яралган эди. Ҳар куни ишга бир янгилик киритмаса, у кун унинг учун кун эмасди. Унинг ташкилотчилиги, ташаббускорлиги остида 10-мактаб буткул қаддини ростлади. Шаҳар таълим муассасаларининг сафи кенгайиб, моддий техник базаси мустаҳкамланди. Кадрлар салоҳияти ошди. Қўлиостидигилар Комилжоннинг сиёсатидан, салобатидан ҳайиқиб туришарди. Бироқ унинг характерида қаттиққўлликдан кўра меҳрибонлик, баджаҳлликдан кўра ҳушмуомалалик устунлиги сезилиб турарди.

Урни келганда юрагимни ўртаётган бир дардни ҳам айтиб ўтишим керак. Комилжон шаҳар халқ таълими бўлимини бошқарган йиллари ўзидаги билим, тажрибани тўла намоён эта олмади. Аниқроғи, намоён этишига йўл беришмади. Сабаби, мустақилликнинг дастлабки йилларида айрим ҳокимият ва бошқарув идоралари тепасига тасодифий - илми саёз, дунёқараши тор кадрлар келиб қолганди. Дўстим ҳам уларнинг "ғид-ғид"идан чарчади чамамда. Бир гал Питнақнинг бообрў кишиларидан бирининг вилоят халқ таълими бошқармаси бошлиғи олдида бориб, "Ўразбоевдан нима истайсиз, уни тинч қўйинг, яхши ишляптику" деганига шохидман. Бу Комилжоннинг эл олдидаги хизматлари эътирофи эди.

Дўстимдан ажралганим қийин бўлди. Худди қаноти қайрилган қушга ўхшаб қолдим. Бироқ унинг фарзандлари билан борди-келдим ўзилмади. Зеро, уларни кўрсам Комилжонни кўргандай бўламан. Ўғил-қизларининг эл назарида эканликларидан қувонаман. То ҳаёт эканман, дўстимни, яқин сирдошимни унутмайман. Бунга ҳаққим ҳам йўқ!

Саиджон КҮРБОНОВЕВ,
синфдоши. (Давоми 8-бетда).

ХАКИКИЙ ЗИЁЛИ ЭДИЛАР

Уйда қандайдир юмуш билан куймаланаётган эдим. К.Ўразбоевнинг тўнғич ўғли Умиджон телефон қилиб, вилоятдан муҳбир келганлигини, отаси ҳақида ёзмоқчилигини, менинг ҳам хотираларимни бермоқчилигини айтди. Ўйлиниб қолдим. Аслида устознинг босиб ўтган умр йўли, қолдирган бой тажрибаси ҳақида мақола эмас, китоб ёзса арзийди. Ҳўп, мен уларнинг қайси фазилатларини, хислатларини айтай? Ҳам меҳрибон, ҳам қаттиққўл оталигиними, том маънодаги чин инсонлигиними ёки кўпқиррали мутахассису адолатли, салоҳиятли раҳбарлигиними?

Комилжон аканинг оддий ўқитувчиликдан директорликка, ундан шаҳар халқ таълими бўлими мудириликка кўтарилганликлари уларнинг ўз касбининг қанчалик билимдони эканликларидан, зуваласида бўлган раҳбарликка ўқувлари борлигидан далолатлар. Бугун юртимизнинг турли бурчларида масъул вазифаларда хизмат қилаётган юзлаб шогирдлари эса устоз номининг абадийлигига ишора. Бири-бириндан ақлли, тарбияли фарзандлар ҳам падарлари руҳини ҳар қадамда шод этишмоқда. Чунончи, ўғил-қизларидан икки нафари ички ишлар тизимида хизмат қилишни танлашган. Умиджон шу



Оила даврасида. 2010 йил.

BIR MAKTAB YANGILIKLARI

KUTUBXONA -
BILIMLAR XAZINASI

Gurlan tumanidagi 4-umumta'lim maktabida "O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini yanada shakllantirishda maktab kutubxonasining o'rnini mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi. "Maktab kutubxonasi - kitob o'qishni qo'llab-quvvatlash maskani" mavzusida ilm dargohi kutubxonachisi Aziza Xudoyberganova so'zga chiqdi. U o'quvchi shaxsini shakllantirishda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etishini, bolaning qo'lga kitob olib o'qishi o'ta tarbiyaviy jarayon, jiddiy mehnat ekanligini, har bir bolaning o'z kitobi bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Binobarin, maktabda ijtimoiy himoyaga muhtoj, tarbiyasi og'ir bolalarning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilashda badiiy adabiyot va san'at namuna-

laridan keng foydalanish maqsadida "Yuz g'azal, yuz javohir", "Bunda bulbul kitob o'qiydi", "Bir oyda bir kitob" mavzularida she'r, g'azal yodlash, kitob o'qishga muhabbat uyg'otish, shu orqali ularda go'zal insoniy fazilatlarini shakllantirib borishda bir qancha ishlar amalga oshirilmog'da.

"Yangi kitoblarni" ko'rgazmalari yoshlarni kutubxonaga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etmog'da. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Muhayyo Ismoilova, ona tili fani o'qituvchisi Hanifa Sobirova-lar bu borada o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Ayniqsa, "Sinf kutubxonalari"-

ning har bir sinfda tashkil etilganligi, o'quv yili oxirida ziyo maskaniga kitoblar sovg'a qilinishi va shu tariqa har yili maktab kutubxonasi jamg'armasi o'sib borayotganligi quvonarlidir. Suhbat davomida kutubxona-ni "xatarli guruh"dagi (kam kitob o'qiydigan bolalar) o'quvchilari bilan kengroq ish olib borish haqida ham maslahatlar berildi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z ustida ishlab kasbiy faoliyati samaradorligini oshirib borishi lozim, degan xulosaga kelindi.

Tadbir 7-sinf o'quvchilari tomonidan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 69 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan "Ona vatan va istiqlol kuychisi" mavzusidagi adabiy kecha bilan yakunlandi.

o'g'il bolalari g'oliblikka erishdilar. "Ofarin, qizlar!" yo'nalishida esa maktabning eng kitobxon qizlari bahrubayt aytish bo'yicha musobaqalashdilar.

Kechani tayyorlashda bilim maskanining texnologiya fani o'qituvchilari Muyassar Masharipova, Chinnixol Quramboyeva, musiqa fani o'qituvchisi Hikmat Matyoqubovlarning xizmatlari katta bo'ldi. Ularga maktab ma'muriyatining minnatdorchiligi bildirildi.

Tadbirda maktab boshlang'ich kasaba uyushmasi raisi Surayyo Matyoqubova, "Ishonch" mahallasi imom-xatibi Komil Sapayev ishtirok etdilar va qatnashchilarning chiqishlarini munosib baholadilar. Eng e'tiborli tomoni shu bo'ldiki, mehmonlar maktab kutubxonasiga ko'plab badiiy kitoblar sovg'a qilishdi.

Sohiba ABDURASHIDOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo'lim 4-bosqich talabasi.

IQTIDORNING YORQIN QIRRASI

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol, yetuk qilib tarbiyalash, ular ongiga xalqimiz yillar davomida ardoqlab kelayotgan ezgu fazilatlarini singdirish borasida ilm maskanlarida qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Gurlan tumanidagi 4-umumta'lim maktabida aprel-estetika ya'ni tasviriy san'at, chizmachilik, musiqa, mehnat ta'limi oyligiga bag'ishlab "Nafosat" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy kecha bo'lib o'tdi. Unda o'quvchi va o'qituvchilardan tashqari faxriy ustozlar, ota-onalar ham qatnashdilar.

Tadbirda o'g'il-qizlar ikkita yo'nalish bo'yicha o'z iqtidorlarini sinab ko'rdilar. Jumladan, "Balli, yigitlari" tanlovida o'quvchilar milliy taomlarimizdan bo'lgan osh pishirish yuzasidan bellashdilar. Natijalarga ko'ra 9-sinf

KORRUPSIYA

UNGA QO'L URIB, OILANGIZ
BAXTIGA ZOMIN BO'LMANG!

Korupsiya qonun ustuvorligiga, demokratiya va inson huquqlariga, samarali davlat boshqaruviga tahdid soladi, tenglik va ijtimoiy adolat prinsipini buzadi, demokratik institutlar faoliyati va jamiyatning ahloqiy normalarini izdan chiqaradi. Korruptsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham korruptsiyaga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Hozirgi paytda respublikamizda korruptsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning korruptsiya domiga tushib qolmasliklari uchun hukumatimiz uzoq muddatli choratadbirlar dasturlari ishlab chiqardi va ularning ijrosini doimiy nazorat qilib kelmoqda. Shu jumladan, korruptsiyaga qarshi kurash targ'ibotini olib borish maqsadida bo'limimiz shaxsiy tarkibi o'rtasida "Korruptsiyaga qarshi kurash va antikorruption hulqni shakllantirish" mavzusida seminar-treninglar o'tkazib kelinmoqda. Kadrlar siyosatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida, bo'sh ish o'rinlari tog' risida muntazam ravishda vazirlik veb-saytiga ma'lumotlar kiritib borilmoqda.

M. JUMANIYOZOV,
Xiva shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

BAHOR

INSONLAR SALOMATLIGINI
UCHUN UNING UZIGA YARASH
TASHVIHLARI BOR

Har bir faslning ularni xos jozibasi bo'lgani singari bahor kelishi bilan kunlar isiy bo'shaydi. Natijada turli xil kasalliklar ham pайdo bo'ladi. Xonadonlarda kulbоla usulda bosilgan tuzamlalar va shunga uхshash turli xildagi консерва махсулотларидан фойдаланилганда ботулизм касаллиги келиб чиқади. Бу касаллик овқатдан захарланиш деб айтілади. Баҳор мавсумида ҳайвонларни профилактик эмлаш бўйича "Долзарб 90 кунлик" тadbirlari мунтазам ўтказиб келинмоқда. Бугунги кунда дунёнинг қатор мамлакатларида инсон ва ҳайвонлар учун умумий бўлган кутуриш, куйдирги ва бошқа касалликлар бўйича мураккаб эпизоотик ва эпидемик вазият сақланиб қолмоқда. Жойларда чорва ҳайвонлари, ит ва мушукларни эмлаш ишларини гуруҳ усулида тизимли ташкил этиш чораларини куриш даркор. Аҳоли хонадонларида мавжуд итларни тулиқ вакцинация қилиш учун ит сақлайдиган фуқаролар рўйхатини ветеринария бўлимига тақдим этиш лозим. Ветеринария бўлиmlарининг эпизоотик вазиятдан келиб чиққан ҳолда киритган тақдимномаси бўйича қаровсиз қолган, кутурган, эгасиз ҳайвонлар белгиланган тартибқоидаларга бўйсунган ҳолда йўқ қилинади. Бўлимимиз томонидан аҳоли ва ҳайвонлар орасида учраши мумкин бўлган Крим-конго геморрагик иситмаси касаллигининг олдини олиш бўйича ҳам тушунтириш ишлари амалга оширилмоқда.

Ф. САТТОРОВ,
Хива тумани фавқуллода вазиятлар бўлимининг бўлими бoshлиги, оддий аскар.

ШИФОКОР ГАЗЕТХОН ХУЗУРИДА

КАСАЛЛИККА ЧАЛИНГАНДАН КЎРА

УНИНГ ОЛДИНИ ОЛГАН АФЗАЛ!

ранг бериш), маникюр, педикюр каби косметик муолажалар ва сарфаршончаларда соч-соқол олдириш жараёнларида зарарсизлантирилмаган асбоб-анжомларнинг ишлатилиши ҳам касаллик юктириш хавфини юзага келтириши мумкинлигини унутмаслик лозим. Соқол олиш анжомлари, тиш шёткаси каби шахсий гигиена воситаларидан умумий тарзда фойдаланиш ОИВ инфекциясининг юкишига сабаб бўлиши мумкин.

ОИВ инфекциясини парентерал йул орқали юкишининг олдини олишда нималарга аҳамият бериш керак?

Муолажа олаётганда бир марталик шприц, игна ва бошқа инъекция асбобларидан фойдаланиш лозим. Тиш шёткаси, устара, соқол олиш, тирноқ тозалаш ва олиш асбобларидан фақат шахсий тарзда фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

ОИВ инфекциясининг онадан болага "вертикал" йул билан юкиши.

Онадан болага ОИВ инфекцияси 3 хил йул билан юкиши мумкин.

- Хомилдорлик даврида йўлдош орқали юкиши мумкин.

- Туғиш жараёнида

- Бола туғилгандан кейин-она болани кўрак сути билан эмизса.

ОИВ куйидаги ҳолларда юкмайди:

- қўл бериб сўрашганда,

кучоқлашиб кўришганда;

- умумий овқатланиш тармоқлари орқали, идиш-товоқлардан умумий фойдаланилганда;

- гаплашганда, йўталганда, акса урганда;

- мебель жихозлари, телефонлардан, транспортлардан биргаликда фойдаланилганда;

- ховуз, сауна, хаммомда биргаликда чўмилишда;

- қон сўрувчи хашаротлар, чивин, бурга, бит қаққанда.

Никоҳланувчилар ўртасида ОИВ инфекциясининг олдини олиш.

Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 25 августдаги "Никоҳланувчи шахсларни тиббий кўрикдан ўтказиш тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори асосида ҳар бир никоҳланувчи шахснинг рухий, наркологик, захм, сил, ОИВ/ОИТС касаллиги юзасидан текширишдан ўтишлари назарда тутилган. Текширишлар яшаш жойига қарашли марказий поликлиникаларда бепул амалга оширилади. Ҳар бир никоҳланувчи шахс тиббий кўрикдан ўтиши, жумладан ОИВ инфекциясига қарши текширилиши мақсадга мувофиқдир.

Ш.ҚҶҚОРОВА,
вилоят ОИТСга қарши кураш маркази вазири.

ДЕХҚОН ХЎЖАЛИГИ ЕРЛАРИНИ ИЖАРАГА ОЛИШ

БЎЙИЧА ЎТКАЗИЛАДИГАН ТАНЛОВЛАР
ҚОЙДАСИГА ЎЗГАРТИРИШ КИРИТИЛДИ

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 3 апрелда "Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкалари ижарасига доир ҳуқуқий муносабатлар тақомиллаштирилиши муносабати билан Вазирлар Маҳкамасининг "Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларини ижарага бериш тартибига доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида" 2021 йил 24 ноябрдаги 709-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги 137-сонли қарори қабул қилинди. Ушбу қарор билан куйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди:

- танловларда фақат ер участкаси жойлашган ҳудудда (Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар кесимида) доимий ва вақтинча рўйхатдан ўтган ҳолда яшовчи шахслар қатнаша олади ва талабгорларга туман бўйича қўшимча коэффициент ҳисобланади;

- танлов ғолиби қўшимча тўлов мажбуриятини қабул қилса, ушбу тўлов мажбуриятининг 5 фоизини ижара шартномаси тузилгунга қадар тўлаши талаб этилади (тўлов операторнинг махсус ҳисоб varaгига шахсий кабинет орқали тўланади);

- қўшимча тўловнинг қолган қисми ижара муддатда, ҳар бир йилга тенг бўлган ҳолда (15 апрель ва 15 октябрга қадар тенг улушда) тўланади;

- қўшимча тўловнинг 5 фоизини тўламаган ёки шартнома имзолашни рад этган ғолиб ҳамда унинг тўғридан тўғри таъсисчилари ҳисобланган шахслар савдо қоидаларини бузган деб эътироф этилади ва биринчи марта содир этилганда 1 йил

муддатга, иккинчи марта такрорланганда эса муддатсиз даврга танловлардан четлатилади.

- танловда қатнашиш учун ариза юбориш ҳамда ижара шартномасини имзолашда махсус идентификациялашдан фойдаланиш имконияти яратилади;

- ғолиб тўлаган қўшимча тўловнинг 5 фоизи тегишли туман (шаҳар) маҳаллий бюджетига ўтказиб берилади ва бу сумма ижара шартномасидаги қўшимча мажбурият тўловида инобатга олинади.

Деҳқон хўжалиги учун мўлжалланган ерларни ижарага беришда:

- ер участкаларини электрон танловда ижарага олишда тўланиши зарур бўлган қўшимча тўловларнинг энг юқори чегараси белгиланди (энг юқори балл 36 балл);

- деҳқон хўжалиги ерларининг норматив қийматидан келиб чиқиб ижарага олиш муддатига ҳисобланадиган қўшимча тўлов ставкалари белгиланди;

- 1 баробарига тенг - 10 балл

- 2 баробарига тенг - 20 балл

- 3 баробарига тенг - 30 балл

- 4 баробарига тенг - 36 балл

- ишсиз оила аъзолари сони ҳақидаги маълумот маҳалладаги ҳоким ёрдамчиси томонидан киритилади;

- талабгорнинг аграр соҳадаги олий ёки ўрта махсус маълумоти учун автоматлаштирилган тартибда балл берилади.

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланган ерларни юридик шахсларга ижарага беришда:

- қишлоқ хўжалиги ерларини ижарага олишда танловда ғолиб бўлиш учун ихтиёрий равишда олинандиган қўшимча тўловлар:

чорвачилиқдан бошқа йўналишлар учун

- 1 баробарига тенг - 18 балл

- 2 баробарига тенг - 38 балл

- 3 баробарига тенг - 58 балл

- 4 баробарига тенг - 78 балл.

Чорвачилик йўналиши учун

- 1 баробарига тенг - 18 балл

- 2 баробарига тенг - 35 балл

- 3 баробарига тенг - 70 балл

- 4 баробарига тенг - 88 балл.

- талабгорда бир неча турдаги техника мавжуд бўлганда энг юқори баллга эга бўлган тоифадаги техника балли ҳисобга олинади;

- қишлоқ хўжалиги ерлари учун танловда ғолиб бўлган шахс қўшимча тўлов мажбуриятини олса, унинг 5 фоизини тўлаш, шартнома имзолаш ва жисмоний шахслар учун ягона таъсисчилигидаги юридик шахс ҳақида ахборотни киритиш учун беш иш кунлик муддат берилади.

Ер участкаларини ижарага олиш бўйича танловда ғолиб бўлиш учун қўшимча тўлов мажбурияти олинса, уни тўлаш тартиби:

- тўлов графиги ижара шартномасига илова қилинади;

- қўшимча тўловлар 15 апрель ва 15 октябрга қадар тенг улушларда тўланиши талаб этилади;

- қўшимча тўлов тўланмаса, ваколатли органлар томонидан ундириш чоралари қўрилади.

2022 йил давомида ва 2023 йил бошидан 4 апрелга қадар қишлоқ хўжалиги ерларини ижарага олиш бўйича ўтказилган танловларда ғолиб бўлиш учун қўшимча мажбурият олган юридик ва жисмоний шахслардан ер участкаси бўйича ижара ҳуқуқи (шартномаси) давлат рўйхатидан ўтказилган кундан бошлаб ҳисобланади ва ундирилади.

М. ИШЧАНОВ,
Электрон онлайн аукционларни ташкил этиш маркази давлат унитар корхонасининг вилоят вакили.

ИПОТЕКА КРЕДИТЛАРИ БЎЙИЧА СУБСИДИЯЛАР АЖРАТИШНИ БЕЛГИЛАНДИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 13 апрелда "2023 йилда бозор таъминловчи асосланган ипотека кредитлари орқали аҳолини уй-жой билан таъминлаш дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги фармони қабул қилинди. Фармонга кўра, бозор таъминловчи асосланган ипотека кредитлари орқали аҳолини уй-жой билан таъминлашнинг амалдаги тартибига шу йил 1 майдан қуйидаги ўзгаришлар киритилади.

Банкларга расмий даромадга эга бўлмаган шахсларга ипотека кредитини ажратишда уларнинг тўлов қобилиятини аниқлашнинг муқобил усулларида фойдаланишга, шу жумладан қарз олувчиларнинг банк картаси айланмаси, ижара, коммунал ва қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа харажатларини инобатга олувчи скоринг тизими жорий қилинади.

Банкларга қарз олувчи томонидан тўланган дастлабки бадал миқдори, имтиёзли давр муддати ва бошқа кўрсаткичлардан келиб чиқиб, субсидиясиз ажратилган ипотека кредитлари бўйича табақалаштирилган фоиз ставкаларини ўрнатиш ҳуқуқи берилди.

Профессионал таълим ташкилотларининг муҳандислик, ишлов бериш ва қурилиш соҳаларидаги махсус фанлар бўйича дарс бераётган ёки ўқув амалиётини ўтказётган ўқи-

тувчилари ва ишлаб чиқариш таълими усталарига имтиёзли шартларда субсидия хабарномаларини бериш тартиби жорий этилади.

Уй-жой сотиб олиш ёки яққа тартибдаги уй-жойларни қуриш ва реконструкция қилиш учун олинадиган ипотека кредитлари бўйича берилган субсидия тақдими этиш тўғрисидаги хабарномаларнинг амал қилиш муддати 4 ой этиб белгиланади.

2023 йил учун ипотека кредитлари бўйича субсидиялар ажратишга доир аризалар тасдиқланган параметрлар доирасида 2023 йил 1 майдан 1 декабрга қабул қилинади. Иқтисодиёт ва молия вазирлигига "Халқпарвар" комиссияларининг ахборотида асосан хато ажратилган деб топилган субсидия хабарномаларини дастурий таъминотдан тўғридан-тўғри бекор қилиш ва тўловларни тўхтатиш ҳуқуқи берилди.

Фармонга кўра, 2023 йилда квартиралар сотиб олиш ва яққа тартибдаги уй-жойлар қуриш ҳамда реконструкция қилиш учун республика бўйича жами 44 690 та ипотека кредитлари ажратилди. Мазкур кредитларнинг камида 30 фоизи хотин-қизларга ажратилиши белгиланган. Ипотека кредитлари бўйича 30 минг нафар шахсга субсидиялар ажратилди.

Д.РАХИМОВ,
Хонқа тумани юридик хизмат кўрсатиш маркази юрисконсулти.

ХАЙДОВЧИЛИК ГУВОХНОМАСИ УНИ MY.GOV.UZ ОРҚАЛИ ХАМ РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАРТИБИ ЖОРИЙ ЭТИЛДИ

Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 12 апрелда "Миллий ҳайдовчилик гувоҳномасини расмийлаштириш тартибини соддалаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида" ги қарори қабул қилинди. Унга кўра, жорий йил 15 апрелдан миллий ҳайдовчилик гувоҳномасини Ягона интерактив давлат хизматлари портали (my.gov.uz) орқали ҳам ариза берувчиларнинг бевосита иштирокисиз расмийлаштириш тартиби жорий этилди. Бунда миллий ҳайдовчилик гувоҳномасига ариза берувчиларнинг бош бармоқ изи маълумотлари жойлаштирилади, агар ахборот тизимларида ариза берувчиларнинг бош бармоқ изи маълумотлари мавжуд бўлмаган тақдирда улар ўзларининг имзо намунасини электрон шаклда тақдим этадилар.

Миллий ҳайдовчилик гувоҳномаларини олиш ҳамда эски намунадаги ҳайдовчилик гувоҳномаларини янгисига алмаштириш бўйича аризалар ариза берувчиларнинг ягона интерактив давлат хизматлари порталидаги шахсий кабинет орқали онлайн тарзда ҳар куни, дам олиш ва байрам кунларидан қатъий назар, 24 соат давомида юборилиши мумкин. Янги расмийлаштирилган миллий ҳайдовчилик гувоҳномаларини почта орқали олиш имконияти яратилади.

2023 йил якунигача барча мавжуд ҳайдовчилик гувоҳномалари жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақамига боғланган ҳолда рақамлаштирилиши белгиланди. Ҳайдовчилик гувоҳномасининг my.gov.uz орқали расмийлаштирилиши фуқароларнинг вақтлари тежаллишига имкон яратиб, уйдан чиқмасдан давлат хизматларидан фойдаланиш имкониятини яратди.

У.АХМЕДОВ,

Хонқа тумани Давлат хизматлари маркази директори.

ENERGETIKA TA'MINOTI SHARTNOMASI SHARTLARI BUZILGANDA JAVOBGARLIK LARNI BILASIZMI?

Energiya ta'minoti shartnomasi energiya bilan ta'minlovchi tashkilotga murojaat qilgan texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan barcha abonentlari bilan tuziladi. Chunki energiya bilan ta'minlovchi tashkilot ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tabiiy monopoliya subyektidir.

Fuqarolik kodeksi hamda "Elektr energetika to'g'risida" gi qonunda energiya elektr ta'minoti korxonasi tomonidan elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki sifat o'shatkichlari davlat standartlariga mos bo'lmagan elektr energiyasi yetkazib berilganligi sababli yetkazilgan zararim o'ni belgilangan tartibda qoplanishi belgilab qo'yilgan. Energiya ta'minoti shartnomasi majburiyatlarini buzgan har bir taraf Fuqarolik kodeksining umumiy qoidalariga ko'ra, shuningdek shartnoma shartlarini buzganlik uchun shartnomada taraffar tomonidan belgilangan yoki boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga asosan javobgarlikka tortiladi.

Elektr energiya shartnomasi majburiyatlarini buzganlik uchun energiya bilan ta'minlovchi tashkilot-

ning hamda abonentning javobgarlik doirasi belgilangan. Energiya ta'minoti tashkiloti tomonidan iste'mol (iste'mol cheklanishi yoki energiya o'chirilishi) ning tartibga solinishi faqat qonun hujjatlariga asosan amalga oshirilishi mumkin. Bunday tartibga solish natijasida elektr energiyasini abonentga yetkazib berishda uzilishlarga yo'l qo'yilgan taqdirda, energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning aybi mavjud bo'lgandagina abonent oldida javob beradi.

Abonentni ogohlantirmasdan elektr energiyasini berishda uzilishga yo'l qo'ygan energiya ta'minoti tashkiloti iste'molchiga bunday harakatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishi lozim. Energiya ta'minoti shartnomasi oldi-sotdi shartnomasining bir ko'rinishi hisoblanganligi uchun ham Fuqarolik kodeksining 419-moddasiga muvofiq abonent pul majburiyatlarini buzganligi uchun kodeksning 327-moddasiga asosan javobgar bo'ladi.

R.EGAMBERDIYEV,
Yangiariq tumani yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

URGANCH TUMANIDAGI 11-UMUMTA'LIM MAKTABI YOSH QALAMKASHLARI IJODIDAN

ABDULLA QODIRYI deyilgan chog'i, Bir yayrab ketadi ruhi ravonim. U zot bilan to'kis har ijod bog'i, U zot bor nurafshon boshda osmonim.

KELING, DO'STLAR, bugun jam bo'lib birga, Abdulla Qodiriyi eslashaylik. Barcha asarlarini olib yodga, Sizga dilda borini baxsh etaylik.

QODIRIYNI ESLAB Ul "O'tkan kunlar" ning qahramonlari, Kitobxon qalbidan bugun joy olgan. Otabek sarsondir, Kumushxon sarson, Zaynab oralarida yurar sargardon.

Dilafroz NAZAROVA,
9-sinf o'quvchisi.

SEVIMLI SHOIRIM

Qalbimdan joy olgandir, Sizning har bir she'ringiz. Satingizda aks etar, Ummon to'la mehringiz.

She'rlaringizni mudom, Jo'shqinlanib o'qiyman. Asta yod olib barin, Goho qo'shiq to'qiyman.

Ra'no NAZAROVA,
6-sinf o'quvchisi.

YOLG'IZLIK

Tabiatning qonuniga hech, Bo'ysunmaydi qaysar yuragim. Bir-bir uchib ketgan hislarim, Qaydaligin kellar so'ragim.

Dunyoning ming chigali aro, Tanho o'zim qolibman nogoh. Azoblarga qilma ro'baro, Yolg'onlardan o'zing ber panoh.

Atrofimga termulaman jim, Bo'lsa deya koshki bitta do'st. Ammo har safar to'rt tomonim, Yolg'iz qolgan samoday bo'm-bo'sh.

Taqdirimdan nolimayman hech, Shunday ekan, beshafqat hayot. Ko'ngli o'ksik demang odamlar, O'lloh o'zi beradi qanot.

DUNYONI AYBLAMA

Dunyoni ayblama aziz insonim, Dunyo emas inson o'zgarar asli. Muhabbat tuyg'usi yo'qolgan zamon, Odamga uradi odamning kasri.

Nolib yashamoqlik senga xos emas, Qo'l-oyog'ing butun demak, baxtlisan. Bir zum harakatdan to'xtamasang bas, Shubhasiz, eng go'zal baxtga arziysan.

Dunyoni ayblama aziz insonim, Shu tuproq o'z yurtning, o'lan to'shaging. Olamni, o'zingni quvonchga atab, Yashasang keladi yana yashaging.

Durdona JO'RAQULOVA,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar institutining Milliy tadqiqot universiteti III-bosqich talabasi.

ASKARLAR



Vatan haqda qayg'urar, Yuragi xalq deb urar, Hattoki jonin berar, Bu bizlarning askarlar!

Sarhadni qo'riqlaydi, Maqsadni unutmaydi, Dushmanni kiritmaydi, Bu bizlarning askarlar!

Mard, qo'rqmasdir askarlar, Qiziqmas oltin, zarlar, Ular o'z yurtin tanlar, Bu bizlarning askarlar!

Men ham askar bo'laman, Xalqqa sodiq qolaman. Akalarimga o'xshab, Chegarada turaman.

O'zodbek HAMDAMBOYEV,
Shovot tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi.

COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING CLASSES FOR ADULTS

"Learning another language is not only learning different words for the same things, but learning another way to think about things." (Flora Lewis). There are so many methods to improve communicative language teaching. Communicative language teaching develops students' communication, interaction skills and students can learn language effectively and confidently with communication in real-life situations through student-to-student interaction and student-to-teacher interaction. CLT essentially aims to have students to learn a new language by actually using and communicating with those around them.

CLT prioritizes the individual needs and interests of students. Role-playing is an effective activity that is often used CLT in the classroom. Interviews are a great way to use CLT in the classroom. An example of communicative language teaching can be an activity that has students discuss their country. Having students group together or pair together to discuss their favourite country can have them practice speaking the new language regarding something that they are passionate about. The teacher may then ask students to relay the information they learned from each peer by giving a summary of the other student's favourite hobby and why it is their favourite. This allows for students to repeat the information they heard but also work together in an informal, low-stakes manner that does not make them feel like they are learning on their own. This communicative way has own advantages for students to learn language effectively: communicative language, creates a more sociable, open and safe atmosphere. When students are listening to a teacher give a lecture, they may not retain that information as much as they would if they were asked to put their skills to practice in a low-stakes way, such as through group discussions. When students have their mistakes pointed out, such as grammatical mistakes they made on a worksheet, they may feel like they alone are not capable of learning. Instead, being put in groups or asked to practice the language with others, they might see that they are not alone in the process of learning new language.

Group work

Group work is a collaborative activity whose purpose is to foster communication in the LT, in a larger group setting.

Example:

- Students are assigned a group of no more than six people.
- Students are assigned a specific role within the group. (E.g., member A, member B, etc.)
- The instructor gives each group the same task to complete.
- Each member of the group takes a designated amount of time to work on the part of the task to which they are assigned.
- The members of the group discuss the information they have found, with each other and put it all together to complete the task.

Students can feel overwhelmed in language classes, but this activity can take away from that feeling. Students are asked to focus on one piece of information only, which increases their comprehension of that information. Better comprehension leads to better communication with the rest of the group, which improves students' communicative abilities

in the LT. Instructors should be sure to monitor that each student is contributing equally to the group effort. It takes a good instructor to design the activity well, so that students will contribute equally, and benefit equally from the activity.

Features of Communicative Approach

There are various features to the communicative language teaching approach, including the integration of reading, writing, and speaking. For example, a teacher may ask students to watch a video and then write a one to two sentence opinion about the video on the board. Students will then read each other's opinions and discuss how they felt about what they watched. This allows for multiple skills to be practiced at once, which is beneficial to a student's ability to communicate effectively with others.

CLT also uses different teaching modes such as groups or pairs for activities, which allows for collaboration to be installed in the language-learning classroom. Group work or work in pairs allows for students to discuss, practice, and master material without feeling isolated in the process of learning a new language. Often times, students who work together will feel more comfortable practicing fluency over the mistakes they make in their grammar. This ensures that students are on the road to becoming fluent in the new language through collaboration, where students may learn from each other and work together.

The communicative approach uses tools, and technology for a personalized learning approach as well. Each student learns differently and has different interests, so through CLT, teachers can make learning more individualized to best meet the needs of their students. For example, students may enjoy talking about sports or popular culture, so the teacher may ask students to discuss those areas with one another through multiple activities, such as role-playing real-life scenarios, group discussion or pair discussion, among other various activities that encourage collaboration.

In conclusion, CLT is recommended for a language teaching program whose purpose is to give communicative competence. The topic has lots of advantages and methods to learn new language effectively. When adults use these ways to improve language teaching skills with these recommendative opinions, after that, they will see the beneficial effects of methods: learning new things, be sociable, free, make friends, communicational knowledge. The practice helps to have a success in while life.

For that position, I try to practice it at work with my students. That way is really helpful because while I am teaching new lesson with colourful handouts and materials to my students, they become more engaged and interested in learning. During the lesson, students communicate and discuss new input with peers, then they broad their language and horizons. Every language teacher may be recommended to teach with higher practice methods to achieve more success and efficiency in CLT based classrooms.

Rozakhon KAMILOVA,
Yulduz ODAMBOYEVA,
the student of Foreign language and literature department Urgench State Pedagogical Institute.

ЖИНОЯТГА ЖАЗО МУҚАРРАР ҚИММАТГА ТУШГАН ТАДБИРҚОРЛИК

Хаётда ҳар кимнинг қўлидан келадиган иш билан шуғуллангани маъқул. Бировга ҳавас ёки ҳасад қилиб, ё бўлмаса моддий манфаатни кўзлаб бирор юмушга қўл уришининг охири хайрли тугамайди. Мавлонбек Раҳимов бор-йўғи ўрта маълумотли. Аммо қурилиш-таъмирлаш фаолияти билан шуғулланганидан "Suhrob dizaun quruvchi" МЧЖни ташкил этган. Ажабо, қурилиш соҳасида ҳеч қандай мутахассисликка эга бўлмаса, тармоқда ақалли уч-тўрт йил ишлаб тажриба орттирган бўлмаса қандай қилиб оғир, мураккаб тизимда иш олиб бориши мумкин?

Ха, шунинг учун ҳам у соҳага тааллуқли "Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида" ги қонун, Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси, Адлия вазирлигида рўйхатга олинган "Баландликда ишлаганда меҳнатни муҳофаза қилиш қонди" талабларидан мутлақо беҳабар. Ҳатто, ишчиларни

махсус кийим-бош, бел қисмига тақийш учун камар, оёқ кийими, бошига кийийш учун каска билан таъминлаш кераклигини ҳам билмайди. Билса-да, пул сарфлаб уларни олиб беришга энсаси қор бермайди. Хуллас, Мавлонбекнинг укувсизлиги, масъулиятсизлиги қимматга тушди. Ҳаётда келиб ҳали ҳеч нарса кўрмаган 20 ёшли йигитнинг ўлимига зомин бўлди.

М.Раҳимов бошқараётган қорхона ишчилари Урганч шаҳрида барпо этилаётган кўп қаватли уйнинг бешинчи қаватида ишлашаётганди. Тўртинчи қаватга тушиш учун зинапоё ўрнатилмаганлиги сабаб қурувчилар ё ҳавозага осилиб, ё бир ярим метр масофага сакраб тушишарди. Ана шундай ҳолатларнинг бирида ишга келганига ҳали бир ойча бўлмаган янгибозорлик Боғибек Болтабоевнинг оёғи қалтираб, сирпаниб кетади ва... ерга йиқилиб, воқеа жойида ҳаётдан кўз юмади.

Жиноят ишлари бўйича Урганч шаҳар суди ушбу воқеада жамият раҳбари М.Раҳимовни айбдор деб топиб, уни бир йил мобайнида қурилиш соҳасида тадбирқорлик фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум этган ҳолда икки йил муддатга озодликни чеклаш жазоси тайинлади. Ажаблანарлиси шундаки, М.Раҳимов суднинг бу ҳукмидан норози бўлиб юқори турувчи суд органига апелляция шикоятини йўллаган. Аризасида фаолиятини "Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида" ги қонун талаблари асосида олиб боргани, ишчисининг ўлими эса ўзининг эҳтиётсизлиги оқибати эканини кўрсатган. Афсуски, биринчи инстанцияда қўрилган иш ҳужжатлари, гувоҳларнинг кўрсатмалари маҳкумнинг келтирган ваҳжларини инкор этади. Шу сабаб вилоят судининг жиноят ишлари бўйича судлов хайъати аризага ўйининг шикоятини қаноатлантирмади, дастлабки суд органининг ҳукмини ўзгаришсиз қолдирди.

Д.МУРАТОВ,
вилоят судининг судьяси.

